

САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ
ИҚТИСОДИЁТ ВА БОШҚАРУВ ФАКУЛЬТЕТИ
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИҚТИСОДИЁТИ ВА БОШҚАРУВИ КАФЕДРАСИ

“Қишлоқ хўжалик корхоналар фаолиятини бошқариш” фанидан

Мавзу: Сабзаёт ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш омиллари ва йўллари

Курс иши

Бажарди:

Усмонқулов О.

Текширди:

Пардаев Ҳ.

САМАРҚАНД -2012

Мундарижа

Kirish	3
1-bob. Mavzuni nazariy asoslash	4
1.1 Xo`jalik er resurslari tarkibi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari	4
1.2. Xo`jalik mexnat resurslari tarkibi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari	7
1.3 Samarqand tumani fermer xo`jaliklarida moddiy- texnika ba`zasi	9
2-bob. Sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	12
2.1. Sabzavotchilik fermer xo`jaliklarida texnologik jarayonlarni tashkil etish.....	12
2. 2. Sabzavot mahsulotlarini etishtirish va uni qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish.....	20
3-bob. Sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo`llari.	23
3.1. Sabzavotchilikda maxsulot tannarxini pasaytirish yo`llari	23
3.2. Sabzavotchilikda hosildorlikni oshirish imkoniyatlari.....	33
3.3. Sabzavotchilikda rentabellikni oshirish yullari.....	35
Xulosa va takliflar.....	39
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.	42

Kirish

Sabzavotchilik fermer xo`jaliklarini rivojlantirish bugungi kunga kelib zaruriy bo`lib qoldi. Prezidentimiz tomonidan 2009 yil «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» yili deb e`lon kilinishi bejizga emas.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini engillashtirish ko`p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman dunyo hamjamiyati miqyosida qabul kilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga ularning bir-biri bilan uyg`unligiga bog`liq.

Prezident ma`ruzasida er maydonlarini to`liq inventarizatsiyadan o`tkazish va fermer xo`jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning er maydonlarini optimallashtirish bo`yicha keng ko`lamli shu bilan birga, puxta o`ylangan ishlar amalga oshirilgani aytiladi shu ishlar natijasida fermer xo`jaliklari uchun ajratilgan er maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g`allachilikda o`rtacha 37 gektardan 93,7 gektargacha ko`paygan yoki 2,5 barobardan ziyod oshdi. Bu ko`rsatkich sabzavotchilikda 10 gektardan 24,7 gektargacha yoki 2,5 barobar, chorvachilikda esa 154 gektardan 164,5 gektarga ko`paygan.

2009 yildagi bosh vazifalardan biri, istiqboldagi barcha ishlarni mustahkam tashkiliy asosga qo`yishdan iboratligini takidladi. SHulardan biri er kodeksiga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilishi zarurligini takidladi.

Mehnatga yaroqli aholini-mehnat resurslarini ish bilan ta`minlash borasida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham kundan kunga rivojlanmoqda. Ularga imkoniyatlar kengaytirilmokda. Xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning soliq yukini yanada kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq tulovini 10 % dan 8 % ga 2009 yildan boshlab esa 7 % ga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli rag`batlantiruvchi omillar yaratdi.

Bugun mamlakatimizda ish bilan band bo`lgan jami aholining 76 % dan ko`prog`i aynan shu sohada mehnat qilayotgani ayniqsa e`tiborlidir.

Sabzavotlar tarkibida etarli miqdorda biologik faol moddalar bo`lganligi uchun, inson tanasiga shifobaxsh oziq-ovqatgina bo`lib qolmasdan u, odamlar organizmini zararli infeksiyalardan tozalab, ishtahasini ochib, ovqat hazm bo`lishiga yordam beradi.

Sog`liqni saqlash Vazirligi tomonidan ilmiy-amaliy jihatdan tasdiqlangan iste`mol me`yorlari bo`yicha O`zbekistonda aholi jon boshiga, yiliga, o`rta hisobda 113 kg sabzavot mahsulotlari iste`mol qilinishi talab qilinar ekan, shundan: 20 kg karam, 26 kg pomidor, 19 kg bodring, 25 kg piyoz, 13 kg sabzi, 5 kg sarimsoq, 6 kg lavlagi va boshqa

sabzavot mahsulotlari. Sabzavot mahsulotlarining inson organizmini vitaminlar bilan ta'minlashda ahamiyatlidir.

Mavzuning maqsadi

Samarqand tumani xududidagi fermer xo'jaliklar va qayta ishlash korxonalarida sabzavotlarni ishlab chiqarish hamda ularni qayta ishlash samaradorligini oshirish bo'yicha xulosa va takliflar berish. Mavzusini nazariy va adabiyotlar sharhi orqali yana bir bor ilmiy-amaliy izlanishlarimiz asosida ko'rsatib berishdir. Natijada, yangi va qayta ishlangan, jumladan sublimatsiyalangan sabzavot mahsulot-larini aholimiz iste'mol talabini qondiribgina qolmay, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy ahvolni ham yaxshilash imkoniyatlariga yordam berishdir.

Mavzuning vazifasi.

- 1) Sabzavotchilikka ixtisoslashgan Samarqand tumani fermer xo'jalik-lari va qayta ishlash korxonalarining oxirgi yillar faoliyatining iqtisodiy tahlilini qilitsh;
- 2) Tumandagi sabzavotlarni qayta ishlaydigan qorxonalarning ish faoliyatini o'rganish;
- 3) Sabzavot ekinlarini etishtirish agrotexnikasi, infratuzilma yo'nalishi bo'yicha tahliliy natijalarni aniqlab berish;
- 4) Mulkchilik shakllarining boshqa mulkchilik shakliga o'tkazilgandan keyingi oxirgi yillar natijaviy tahlilini o'tkazish;

1-bob. Mavzuni nazariy asoslash

1.1 Xo'jalik er resurslari tarkibi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari

Er resurslari, boshqa ishlab chikarish vositalardan tubdan fark kilgani xolda, asosiy ishlab chikarish vositasi xisoblanib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi iqtisodiga katta ta'sir ko'rsatadi.

1.Er tabiat maxsuli. Inson mehnati tuproq xususiyatini uzgartiradi, bu uning mehnat predmeti ekanligi. O'simliklarning rivojlanishi va o'sishga ta'sir kursatishi uning mexnat vositasi ekanligi. Ikkalasi birgalikda uning ishlab chikarish vositasi ekanligini bildiradi.

2.Erning xududiy chegaralanganligi va uning takror yaratilmasligi. Er boshka ishlab chikarish vositalari kabi insonnig xoxishi bilan kupayib kolavermaydi.

3.Erni almashtirish mumkin emasligi. Erni boshqa ishlab chiqarish vositalari kabi almashtirib bulmaydi, undan boshqa ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga qarab takomillashganlari bilan almashtiriladi.

4. Erni siljitib bulmasligi. Er qaerda joylashgan bo'lsa, usha erda undan foydalanish mumkin, uni bir joydan boshqa joyga kuchirish mumkin emas.

5. Er uchastkalarining sifati buyicha turli tumanligi. Er uchastkalariga bir xil miqdorda mablag` va mehnat sarflansa ham olinadigan mahsulotlar miqdori turlicha bulishi mumkin.

6. Boshqa ishlab chikarish vositalari ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganda eskiradi, uzining foydalilik xususiyatini kamaytiradi va butunlay ishdan chikadi.

Er umrbodlik ishlab chikarish vositasi xisoblanadi, eskirmaydi, aksincha u yaxshilab parvarish kilinsa, kup xosil beradi. Erning bu xususiyatlari uning umrbodligiga, ya`ni parvarish kilinaetgan usimlikni zarur ozuka moddalari bilan kondirish va xosil etishtirish xususiyatiga bog`lik. Iktisodchilar tuprok unumdorligini uch turga ajratganlar:

1. Tabiiy 2. Sun`iy 3. Iktisodiy

Tuproqning unumdorligi - kuyosh, shamol, suv kabi tabiiy kuchlarning ta`sirida uzok davom etgan tuprok xosil bulishi jarayonining natijasidir. Tuprokning tabiiy unumdorligi, uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarini xarakterlaydi, u dexkonchilik uchun xal kiluvchi axamyatga ega, iktisodiy unumdorlikning asosi xisoblanadi. U insonning mexnat faoliyatiga bog`lik bulmagan xolda xarakat kiladi. Lekin tabiiy unumdorlik erning potentsial sifatinigina xarakterlaydi. Tuproq ozuqa moddalariga boy bo`lganligi bilan, unga ishlov berilmasa, ya`ni inson mehnati ta`sir etmasa, u kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Insonning ishlab chiqarish faoliyati natijasida yaratilgan unumdorlik sun`iy unumdorlik deb ataladi, u ishlab chikaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga bog`lik buladi va shuning uchun jamiyat rivojlanishining turli boskichlarida bir xil emas.

Tabiiy va sun`iy unumdorlik birlikda iktisodiy unumdorlikni tashkil kiladi.

O`zbekiston Respublikasining barcha er resurslari yagona er fondini tashkil etadi. Ular maksadli foydalanishiga karab, O`zbekiston Respublikasi er kodeksining 2-bobida kursatilganidek kuyidagi kategoriyalarga bulinadi:

1. Qishloq xo`jaligiga muljallangan erlar;

2. Axoli punktlarining erlari;

3. Sanoat, transport, aloka, mudofaa va boshka maksadlarga muljallangan erlar;

4. Tabiatni muxofaza kilish, sog`lomlashtirish, rekreatsiya maksadlariga muljallangan erlar;

5. Tarixiy-madaniy axamiyatga molik erlar;

6.O`rmon fondi erlari;

7.Suv fondi erlari;

8.Davlat zaxira erlari.

Qishloq xo`jaligida er resurslaridan foydalanishning iktisodiy samaradorligi xo`jaliklarga berkitilgan er resurslardan foydalanish samaradorligi sifatida xam, qishloq xo`jaligiga yarakli er va uning aloxida turlari buyicha foydalanishning samaradorligi sifatida xam xarakterlaydigan kursatkichlar tizimi orkali ifodalanishi mumkin. Kursatkichlarning bir kismi turli xil er resurslari maydonlari xajmining mikdoriy uzgarishlarini xarakterlaydi va ma`lum darajada ulardan foydalanishning ekstensiv xarakterini aks ettiradi, boshqa kismi erdan foydalanishning intensiv darajasini xarakterlaydi, ya`ni 1 gektar maydon xisobiga tug`ri kelgan u yoki bu ishlab chikarish samarasini aks ettiradi.

Har bir qishloq xo`jalik korxonasini o`rganishda avvalo er resurslari o`rganiladi. SHu bois, biz ham tadqiqotimiz ob`ekti bo`lgan Samarqand tumani fermer xo`jaliklarida er resurslari o`zgarishini 1-jadval ma`lumotlari asosida ko`rib chiqamiz.

1-jadval

Samarqand tumani fermer xo`jaliklarida er resurslari o`zgarishi (maydon ga)

№	Ko`rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2010 yilda 2009yilga nisbatan o`zgarish	
				Mikdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Jami er maydoni	46950	46950	0	100,0
2.	SHundan xaydaladigan erlar	27520	27786	266	100,9
3.	Sug`oriladigan erlar	27520	27786	266	100,9
4.	YAylov	1556	1555	-1	99,9
5.	Ko`p yillik daraxtlar	840	846	6	100,7
6.	O`rmon erlari	303	300	-3	99,0
7.	Suv xovzalari	4235	4402	167	103,9
8	Boshqa erlar	12296	12320	24	100,2

*Manba: Samarqand tumani statistik ma`lumotlari 2009-2010 yillar ;

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand tuman fermer xo'jaliklarida jami er maydoni 2009 yilda 46950 gektarni tashkil etgan bo'lib bu kursatki 2010 yilda xam uzgarmagan, haydaladigan er maydonlari 2009 yilda 27520 ga ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2010 yilda 27786 ga ni tashkil etgan, ya'ni 2009 yilga nisbatan 266 ga yoki 0,9% ga oshagn.

1.2. Xo'jalik mexnat resurslari tarkibi va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari

O'zbekiston Respublikasi «Mexnat Kodeksi»ning 1-bob 8-moddasida mexnatning ulug'vorligi tug'risida shunday deyilgan: «Xar bir shaxsning mexnat xukuklarini ximoya kilish kafolatlanadi, bu ximoya mexnat tug'risidagi konun xujjatlariga rioya kilinishini tekshiruvchi va nazorat kiluvchi organlar, shuningdek mexnat nizolarini kuruvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi». Mexnat – bu insoning maksadli faoliyati bo'lib, bu jarayonda u tabiat predmetlarini uzining ehtiyojlarini kondirish uchun moslashtiradi va o'zgartiradi. jz kuchini kushgani xolda inson, mexnat kurollaridan foydalanib, tabiat bergan materiallarni, kishilarning moddiy va ma'naviy extiyojlarini kondiradigan moddiy ne'matlarga, boyliklarga aylantiradi. Mexnat jarayoni, insoning ish joyida, uning mexnat faoliyatining ma'lum natijalariga erishishga yunaltirilgan xarakatlarining tuplamini bildiradi. Qishloq xo'jaligi ishlab chikarish samaradorligi mexnat resurslarining mikdoriga, tarkibiga, malakasiga va ulardan foydalanish samaradorligiga bog'lik. Qishloq xo'jaligida mexnat resurslariga mexnatga yarakli erkaklar -16 dan 60 yoshgacha, ayollar - 16 dan 54 yoshgacha, shuningdek qishloq joyda yashovchi usmirlar va nafakaxurlar kiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida mexnat resurslari tarkibiga

1. Doimiy;
2. Mavsumiy;
3. Vaqtinchalik ishchilar, shuningdek, shtatda turuvchi;
4. O'smirlar;
5. Nafaqaxo'rlar kiradilar.

SHu jumladan:

1. Doimiy ishchilarga - muddatsiz ishga qabul qilinganlar;
2. Mavsumiy ishchilar - 6 oygacha muddatga qabul qilinganlar;
3. Vaqtinchalik ishchilarga - 2 oygacha muddatga qabul kilin-ganlar kiritiladi.

Korxonalarning mexnat resurslaridan tashkari ba'zi xollarda qishloq xo'jaligida (mavsumiy ishlarda) mexnat shartnomasi asosida chetdan jalb kilinganlar mexnatidan xam foydalaniladi, shu jumladan yollanma ishchilar xam. Qishloq xo'jalikda mexnat resurslarining shakllanish va foydalanishning asosiy xususiyatlari kuyidagilar:

1. Biologik ishlab chikarish vositalari, tirik organizmlar - tuprok, usimlik, xayvonlarni rivojlantirish uchun kulay sharoitlar yaratish uchun xodimlar mehnati mazmunining yunaltirilganligi.
2. Mehnat resurslaridan foydalanishning samaradorligi tabiiy, xususan, erning umumdorligi va ob-xavo iklim sharoitlariga bog`lik.
3. Kup xodimlarning bir kancha mehnat vazifalarini bajarishi. Bunday aralashishning zarurligi ish turining kupligi va bajarish muddatining mavsumiyligidan kelib chikadi.
4. Ishlab chikarish jarayonida er, mollar va boshka resurslarning mustakil emasligi.
5. Mehnat jarayonlarining uz-uzini boshkarishi.
6. Xodimlar daromadining o`simlikchilikda va chorvachilikda pirovard iktisodiy natijalarga bog`likligi.
7. Xodimlar daromadining faqat ijtimoiy xo`jalikda emas, balkiy shaxsiy dehqon xo`jaligida xam qullanilishi. Samarali qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi uning mehnat resurslari bilan me`yor bo`yicha ta`minlashishiga bog`lik. Ish kuchi bilan etarlicha ta`minlanmasligi ishlab chikarish texnologiyasiga rioya kilinmaslikka, pirovard natijada maxsulotni etarlicha olinmasligiga olib keladi. Mehnat resurslari bilan me`yordan yukori darajada ta`minlanganlik esa ish kuchidan kamunum foydalanishga va mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi.

Har bir qishloq xo`jalik korxonasida ishlab chiqarishni ta`minlash uchun uning etarli mehnat resurslari bo`lishi lozim. SHu bois, biz ham tadqiqotimiz ob`ekti bo`lgan Samarqand tumani fermer xo`jaliklarida mehnat resurslari o`zgarishini 2-jadval ma`lumotlari asosida ko`rib chiqamiz.

2-jadval

Samarqand tumani mehnat resurslarining demografik holati.

T/r	Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	2009 yil	2010 yil	2010 yilda 2009 yilga nisbatan o`zgarish	
					Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Axoli soni	kishi	108200	109750	150	101,4
	sh. j.: xotin-qizlar	kishi	54032	55310	1278	102,3
2.	Xo`jalik a`zolari	kishi	36065	36070	5	100,01
	sh.j. xotin-qizlar	kishi	18078	18096	18	100,09

3.	Xo`jalik a`zolaridan ishlayotganlari	kishi	35075	35231	156	100,4
	sh.j. xotin-qizlar	kishi	18065	18096	31	100,1
4.	Mehnatga qobiliyatli yoshdagilardan kattalar	kishi	39601	40168	567	101,4
5.	Xo`jalikda yashab boshqa joyda ishlayotganlar	kishi	6708	6805	97	101,4

***Manba:** Samarqand tumani statistik ma`lumotlari 2009-2010 yillar ;

2-jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, Samarqand tumani fermer xo`jaliklarida aholi tarkibi 2009 yilda 108200 kishini tashkil etgan bu ko`rsatkich 2010 yilda 109750 kishini ya`ni 2009 yilga nisbatan 1,4 % ga oshgan jami aholiga nisbatan xotin qizlar 2009 yilda 54032 kishini, 2010 yilda 55310 kishini tashkil etgan. Xo`jalikda band aholi 2009 yilda 35075 kishini tashkil etgan bo`lsa, 2010 yilda 35231 kishini tashkil etgan, 2009 yilga nisbatan 0,4 %ga oshganligini ko`rishimiz mumkin.

1.3 Samarqand tumani fermer xo`jaliklarida moddiy- texnika ba`zasi

Qishloq xo`jaligini moddiy-texnika bazasi deganda, qishloq xo`jaligida mavjud bulgan barcha mexnat vositalari va mexnat buyumlari yig`indisiga tushuniladi. Uning tarkibiga er resurslari, ishlab chikarish imoratlari, inshootlari, qishloq xo`jaligi mashinalari va jixozlari, transport vositalari, maxsuldor va ishchi xayvonlari, kup yillik daraxtlar, suv resurslari, uruglik, chorva ozukalari, neft` maxsulotlari, ugit, kimyo vositalari va boshkalar kiradi.

Qishloq xo`jaligi moddiy-texnika bazasi xalk xo`jaliginiig boshka tarmoklaridan bir kator xususiyatlari bilan fark kiladi:

Birinchidan, qishloq xo`jaligi moddiy-texnika bazasida er asosiy rol` uynaydi. Qishloq xo`jaligi asosiy ishlab chikarish vositalarining rivojlanishi bevosita erdan kay darajada foydalanishga boglik. Erning unumdorligi xap xil bo`lib, maxsulot birligi ychyn xar xil mikdorda xarajat sarflanadi. Bu esa xar xil unumdorlikka ega bulgan erlarda bir xil mikdorda asosiy va aylanma vositalarga ega bulish zaruriyatini keltirib chikaradi.

Ikkinchidan, qishloq xo`jaligi moddiy-texnika bazasi xar doim tabiiy sharoitlar ta`sirida buladi. Qishloq xo`jaligi xududiy xarakterga ega bo`lib, xar bir xududda tuprok - iklim sharoitlari xar xil bulishi tufayli xar xil sistemadagi mashinalardan foydalanishga tugri keladi. SHuning uchun xududlarda va xududlar ichidagi xo`jaliklarda moddiy-texnika bazasining tarkibi xam xar xil buladi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida ish davri bilan ishlab chikarish vakti bir biriga mos kelmasligi tufayli, ishlab chikarish mavsumiy xususiyatga ega bo'lib, bu moddiy-texnika vositalaridan unumli foydalanishga salbiy ta'sir etadi. Ishlab chikarish mavsumiy bulishi zaxira urug'lik, ozuka, yokilgi moylash materiallari va boshkalarga ega bulish zaruriyatini keltirib chikaradi.

Turtinchidan, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasining bir kismi jonli organizm (ishchi xayvonlar, maxsuldor mollar, parrandalar, kup yillik daraxtlar va xokazo)lardan iborat bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun ma'lum ishlab chikarish vositalariga ega bulmoklik kerak.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan transport xizmati, sifatli yul qo'rilishini amalga oshirish, qishloq xo'jaligi texnikalarini ta'mirlash va saqlash kup miqdorda sarflar qilishni taqozo etadi,

SHuningdek, har qanday ishlab chikarish kabi qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chikarish uchun xam ishlab chikarish vositalarining me'yoriy xajmda mavjud bulishini takozo etadi.

Asosiy ishlab chikarish fondlari deb, ishlab chikarish jarayonida bir necha bor ishtirok etib, o'zining tashqi kurinishini o'zgartirmaydigan, qiymatini maxsulot tannarxiga asta-sekinlik bilan utkazib boruvchi vositalarga aytiladi. Bularga ishlab chikarish binolari, inshoatlar, mashina va asboblar, transport vositalari, xo'jalik va ishlab chikarish inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, kup yillik daraxtlar va boshqa, ya'ni bir yildan ortiq ishlatiladigan vositalar kiradi.

Xozirgi vaqtda amaldagi sinflanishga muvofiq xo'jaliklardagi asosiy ishlab chikarish fondlari o'zining moddiy (natural) xarakteriga va ishlab chikarish jarayonida bajaradigan xizmatiga qarab qo'yidagi guruxlarga bo'linadi;

1.Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan asosiy ishlab chikarish fondlari (imorat, inshoatlar, uzatuvchi moslamalar, mashina va qurollar, mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar).

2.Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan ishlab chikarish fondlari (sanoat ishlab chikarish vositalari, kurilish vositalari, savdo va umum ovqatlanish vositalari va boshqalar).

Har bir qishloq xo'jalik korxonasining fondlar bilan ta'minlanganligi ishlab chikarishning to'g'ri va soz olib borilishi garovidir. SHu bois, biz ham tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan Samarqand tumani fermer xo'jaliklarida moddiy-texnika resurslari o'zgarishini 3-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

Samarqand tumani fermer xo`jaliklarida asosiy fondlar qiymatining o`zgarishi

T/r	Ko`rsatkichlar	2009 yil		2010 yil		2010 yilda 2009 yilga nisbatan o`zgarishi	
		Qiymati, mln so`m	Salmog`i, %	Qiymati, mln so`m	Salmog`i, %	Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Bino	2735,2	32,6	2958,4	30,7	223,2	108,2
2.	Inshoat	456,7	5,4	521,3	5,4	64,6	114,1
3.	O`zlash moslamalari	146,9	1,7	174,3	1,8	27,4	118,7
4.	Mashina va uskunalari	2115,1	25,2	3001,6	31,1	886,5	141,9
5.	Mebel va ofis jixozlari	28,6	0,3	31,5	0,3	2,9	110,1
6.	Komp'yuter va hisoblash texnikasi	8,2	0,1	12,4	0,1	4,2	151,2
7.	Transport vositalari	816,6	9,7	836,5	8,7	19,9	102,4
8.	Mahsuldor xayvonlar	27,5	0,3	31,1	0,3	3,6	113,1
9.	Ko`p yillik o`simliklar	1854,7	22,1	1867,5	19,3	12,8	100,7
10.	Boshqa asosiy vositalar	211,3	2,5	217,3	2,3	6,0	102,8
	Jami	8400,8	100,0	9651,9	100,0	1251,1	114,9

*Manba: Samarqand tumani statistik ma`lumotlari 2008-2009 yillar ;

3-jadval ma`lumotlaridan ko`rinib turibdiki, Samarqand tumani fermer xo`jaliklarida 2010 yilda jami asosiy fondlardan 2009 yilga nisbatan binolar 8,2% ga, inshootlar 14,1% ga,

o`zatish moslamalari 18,7% ga va boshqa asosiy fondlar ham o`z navbatida 2,8% ga oshgan.

Tumanda jami asosiy fondlar 2010 yilda 2009 yilga nisbatan 1251,1 mln so`mga yoki 14,9% ga oshgan.

2-bob. Sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish.

2.1. Sabzavotchilik fermer xo`jaliklarida texnologik jarayonlarni tashkil etish.

Fermer xo`jaliklarida, oila pudrati jamoalarida biznes reja tuzish jarayonida birinchi navbatda texnologik xaritalar tuziladi, Texnologik xarita –beznis rejaning asosidir. Ularning asosini tarmoqning agrotexnik jarayonlarini tashkil etishsiz tasavvur etib bo`lmaydi.

***Pomidor o`stirish texnologiyasi. Er tanlash.*** Oziq moddalarga boy, mexanik tarkibi engil qumoq, sho`rlanmagan har xil tuproq tiplari yaroqli hisoblanadi.

***Almashlab ekishdagi o`rni.*** Beda, ko`kat va dukkakli sabzavotlar, piyoz, sarimsoq, poliz ekinlari, bodring va karam yaxshi o`tmishdosh. Bir dalada pomidor ikki yil o`stirilib, Yana uch yildan so`ng qayta ekish mumkin.

O`g`itlash. Bo`z tuproqlarda gektariga azot 120-200 kg, fosfor 140-150 kg, kaliy 90-100 kg o`tloq va o`tloq-botqoq tuproqlarda azot 140-150 kg, fosfor 140-150 kg, kaliy 100 kg hisobida beriladi.

Erni ekishga tayyorlash. Kuzda PN 4-35, PYA 3-35, PD 4-35 markali pluglar, T-4A traktoriga taqilib, tuproq 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Bahorda CHKU 4-1 chizel-kul'tivatorida, 10-12 sm chuqurlikda va BZTS-1,0 markali boronalar yordamida (5-6 sm) ishlanadi, zarur bo`lsa KZU-0,3 markali tekislagich bilan er tekislanadi. So`ngra ko`chat o`tkazish uchun jo`yaklar olinadi.

Navlari. ertapishar: Talalixin-186, Peremoga-165, O`zmash-1, Teminol krasniy-2077. O`rtapishar: Vostok-36, Novinka Pridnestrov'ya, Podarok, Volgogradskiy-595, TMK-22. Kechpishar: Oktyabr, YUsupovskiy.

***Ko`chat etishtirish.*** Tumanlashtirilgan navlarning tozaligi 98%, unuvchanligi 85% dan kam bo`lmagan 1-klassli urug`lar ekiladi. Bunday urug`larning 250-400 grammi bir gektarga ko`chat olish uchun etarli.

Urg`lar ekish oldi suvda yoki 0,01-0,05% li o`stiruvchi stimulyatorlar, mikroelementlar eritmasida 10-12 soat davomida ivitiladi, so`ngra TMTD yoki boshqa shunga o`xshash fungitsidlar bilan ishlanadi (1 gramm uruqqa 4-8 gramm preparat). SHunday tayyorlangan urug`lar iliq yoki yarim iliq ko`chatxonalarga fevral oyi boshida

0,5-1,0 sm chuqurlikka ekiladi. Maysalar ko`rinishigacha harorat 20-25°, ko`kargach 10-15° da saqlangani ma`qul. Ko`chatlar zarur bo`lsa siyraklashtiriladi. O`suv davrida, oziqlantirilib, sug`orib, begona o`tlardan tozalanadi. 60-70 kundan so`ng, 6-8 chinbarg chiqargach aprel oyi dalaga o`tkazish uchun tayyor bo`ladi.

Ekish muddati, qalinligi va chizmasi. ertapishar pomidor ko`chatlari 10-20 aprelda, kechkilari esa 20 apreldan 10 maygacha ekiladi. Qator oralari 70-90 sm, tup oralari naviga qarab 25,30,40 sm qilib har gektariga 50-74 mingtagacha ko`chat ekiladi.

Parvarishlash. Birinchi ishlov berish ko`chatlar unib chiqqandan so`ng 10 kun o`tgach o`tkaziladi. Ko`chatlarni chipiq qilish YAna 12-15 kun o`tgach takrorlanadi. O`suv davrida qator oralariga 6-7 martagacha, KOR-4,2, KRN-4, markali kul'tivatorlar yordamida ishlov beriladi. Pomidor palaklari bir necha marta pushtaga to`g`rilab chiqiladi. O`suv davrida tuproq namligi, dalaning namlik sig`imiga nisbatan 75-80% dan kam bo`lmasligi lozim. Sizot suvlari chuqur bo`lgan bo`z tuproqlarda gektariga 500-700 m³ hisobida 14-16 martagacha sug`oriladi.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash. Hozirgi paytda pomidorlar ochiq va yopiq maydonlarda virusli mozayka bilan kasallanmoqda. Ularga qarshi pomidor urug`lari, ekish oldidan termik qayta ishlash, ya`ni bir sutka davomida 50-25° da, so`ngra ikki sutka mobaynida 80° li issiqlikda termostatda qizdiriladi. Qizdirilgan urug`lar 0,3% li metil kukuni eritmasida ivitiladi va ekiladi.

**Hosilni yig`ishtirish.** Qo`lda amalga oshiriladi va pishish darajasiga qarab har 3-5 kunda, jami 10-15 martagacha teriladi. Mevalari bir vaqtda pishadigan texnikaga mos pomidor navlari hosili SKT-2 markali kombayn yordamida bir marta yig`ishtirib olinadi. Hosildorlik o`rtacha 200 ts/ga, ilg`or xo`jaliklarda 300-400 ts/ga ni tashkil etish.

**Karam o`stirish texnologiyasi. Er tanlash.** YAxshi o`g`itlangan, oziq moddalarga boy, namiytirilgan salqin tuproqlar yaroqli.

**Almashlab ekishdagi o`rni.** Bitta dalaga karam 3 yilda bir marta ekiladi. Unga, kartoshka, bodring, poliz va dukkakli ekinlari yaxshi o`tmishdosh hisoblanadi.

O`g`itlash. Bo`z tuproqlarga ertagi va kechki karam etishtirish uchun gektariga 20-30 tonna go`ng, 150-200 kg azot, 100-130kg fosfor va 75-100 kg kaliy, o`tloq tuproqlarga esa 120-150 kg azot, 120-150 kg fosfor va 60-100 kg kaliy, uning 50% erni haydashda solinadi. Fosforning 25-30% ko`chat o`tkazish vaqtida, azotli o`g`itlarning 40% ko`chat tutgach birinchi oziqlantirishda, qolgan 60% azot va 50% kaliy o`g`itlari karambosh o`ray boshlanganda beriladi.

Erni ekishga tayyorlash. Kuzda PN 4-35, PYA 3-35, PD 4-35 markali pluglar, T-4A traktoriga taqilib, tuproq 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanadi. ertagi karam ekiladigan dalalar erta bahorda boronalanib jo`yaklar olinadi, kechki karam takroriy ekin sifatida

ekiladigan bo'lsa, asosiy ekin yig'ishtirib olingach, er sug'oriladi, etilgach 22-25 sm chuqurlikda haydaladi, boronalanadi, molalanadi va jo'yak olinadi.

Karam ikki yillik o'simlik bo'lib, birinchi yili karambosh, ikkinchi yili esa gulpoya chiqari, gullaydi va urug' beradi. U sovuqqa (4-8 darajagacha) chidamli sabzavot ekinidir. O'simlikning yaxshi o'sib rivojlanishi uchun harorat 15-20 darajada bo'lganligi ma'qul. Sutkalik o'rtacha harorat 25° dan ortib, kunduzgi 30-35° gacha borganda, karamning bosh o'rashi sekinlashadi, tezpishar navlarda to'xtashi ham mumkin.

Respublikamizda karam ko'chatlari unib chiqqanidan 100-120 kun o'tgach yoki ko'chatlar dalaga o'tkazilgach, 60-85 kunda pishib etiladi.

Navlari. ertangi ekin sifatidan ertapishar Iyunskaya, nomer perviy Gribovskaya 147; kechki muddatda o'rtapishar Tashkentetskaya 10; kechpishar Uzbekistanskaya 133, Saraton, sud'ya uzbekskiy; qish oldi ekish uchun Derbent mahalliysi, Navro'z, Apsheronskaya ozimaya navlari yaroqli.

Ko'chat etishtirish. YUqorida qayd etilgan navlarni tozaligi 98%, unuvchanligi 85% dan kam bo'lsagan 1 klass urug'lardan bir gektariga ko'chat olish uchun 350-400 grammi etarli hisoblanadi.

Urug'lar ekish oldidan suvda yoki 0,01-0,05% li o'stiruvchi stimulyatorlar, mikroelementlar eritmasida 10-12 soat mobaynida ivitiladi, so'ngra TMTD yoki boshqa shunga o'xshash fungitsidlar (1 gramm urug'ga 4-8 gramm preparat) bilan ishlanadi. SHunday nishlatilgan va ishlangan urug'lar iliq yoki yarim iliq ko'chatxonalarga ekin uchun dekabr-yanvar oylarida, o'rtagi karam sifatida, mart-aprel oylarining boshlarida 0,5-1,0 sm chuqurlikga ekiladi. O'simlik ko'karishigacha harorat 15-20°, so'ngra 8-10° da saqlangani ma'qul.

Yozda kechki karam ko'chatlarini o'stirish dala yaqinida joylashgan ko'chatxonada tashkil qilinib, kichik dala yoki egatlarda etishtiriladi. Ko'chatlar zarur bo'lsa siyraklashtiriladi, o'suv davrida oziqlantiriladi, sug'oriladi, begona o'tlardan tozalanadi, 4-5 chinbarg hosil qilgach, dalaga o'tkaziladi.

Ko'chat o'tqazish muddati, qalinligi va chizmasi. O'zbekistonda karam to'rt muddatda ekiladi: ertangi-fevral oyining oxiri, mart oyining boshlarida: o'rtangi-mart oyining oxirgi 10 kunligida: kechki - 15 iyundan-15iyulgacha: qish oldidan noyabr oyi boshlarida ekiladi. Qator oralari 70 sm, tup oralari naviga qarab 25, 30, 40 va 50 sm qilinib, har gektariga 28-30, 36-37 va 47-57 mingtagacha ko'chat ekiladi.

Parvarishlash. Ko'chatlar tutgandan so'ng, qator oralariga birinchi kompleks ishlov beriladi: qator oralari yumshatiladi, oziqlantiriladi va o'simlik bo'g'zigacha qo'lda chipiq qilinadi. Jami qator oralariga 2-3 marta ishlov beriladi. Tuproq namligi dalaning namlik sig'imiga nisbatan 80-90% bo'lishi kerak. ertangi karam, sizot suvlari chuqur joylashgan

boʻz tuproqlarda 8-9 marta, yuza joylashgan erlarda 5-6 marta, kechki karam esa 7-9 marta hisobida sugʻoriladi. Oʻrtacha sugʻorish meʼyori gektariga 450-550 m³.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash. YOsh nihollarga, karam bakteriozi, soxta un shudring kasalligi, bitlar, karam pashshasi, kuyasi, karam kapalaklari katta zarar keltiradi. Karam bakteriozi, soxta un shudringiga qarshi urugʻ ekish oldidan 20 minut davomida 45-50° da qizdiriladi. Soʻngra har bir kg urugʻga 6-8 gramm TMTD yoki 3-4 gramm Tigamar alashmasiqoʻshiladi.

Karam bitiga qarshi 40% lilon (1,0-1,5 kg/ga), 10% li danitol (1,5-2,0 litr/ga), qolgan barcha zararkunandalarga qarshi dentrabatsillin, entobakterin (1,5-2,0 kg/ga), detsis, karate (0,2-0,4 litr/ga) ikki marta purkalganda yaxshi natija beradi.

Yigʻishtirish. Hosil karam boshlari zichlashib, qattiqlashganda birinchi marta may oyida, ikki marta 3-4 noyabr oyida qoʻlda yigʻib olinadi. Karamning boshi pichoq bilan bandidan kesib olinadi. Soʻngra 1-2 bargi qoldirilib tozalanadi va sotishga yoki saqlashga joʻnatiladi.

Oʻzbekistonda ertapishar karamning hosildorligi oʻrtacha 150-200ts/ga, kechki karamning hosildorligi 250-280 ts/ga, ilgʻor xoʻjaliklarda 350-400 ts/ga tashkil etadi.

Bodring oʻstirish texnologiyasi. Er tanlash. Unumdor, organik moddalarga boy, er osti suvi yuza joylashgan, engil qumoq, shoʻrlanmagan tuproqlar mos keladi.

Almashlab ekishdagi oʻrni. Bodring uchun kartoshka, karam, sabzi lavlagi eng yaxshi oʻtmishdosh hisoblanadi.

Begona oʻtlarga qarshi ekishga 3-4 kun qolganda gektariga treflan (0,75 kg) yoki natrafor (2 kg taʼsir etuvchi moda hisobida) sepib, yuzasi (3-5 sm) koʻmiladi. Bodring ekilgach, darhol defenamid preparati, gektariga 4 kg hisobida sepilishi ham mumkin.

Oʻgʻitlash. Gektariga 20tonna chirigan goʻng, azot 150-200 kg, fosfor 100-150 kg, kaliy 50-75 kg taʼsir etuvchi moda sifatida solinadi. Goʻng va kaliy toʻliq meʼyorida, fosforning 75% shudgordan oldin, qolgan 25% ekishda beriladi, azotli oʻgʻitlar asosan uch marta oziqlantirishda: birinchi marta bodring 2-3 ta chinbarg chiqarganda, ikkinchi marta gullashda, uchinchisi 2-3 marta hosil terilgach sepiladi.

Navlari. Salat va konservabop Ranniy-645, Pervenets Uzbekistan-265, Parad-176, Konkurent, Gulnoz, Uzbekskiy-740, Talab, Margelanskiy-822 navlari ekilgani maʼqul.

Ekish va parvarishlash. Aholini toʻxtovsiz bara bodring bilan taʼminlash uchun ekish 15 apreldan-15 iyulgacha gektariga 4-6 kg birinchi klass urugʻlari hisobida pushtalab $(110+70)/2 \cdot 40$ sm chuqurlikda ekiladi. Kechki bodringni 15 iyuldan-15 iyulgacha ekish tavsiya etiladi.

Umuman, urug`ni ekish oldidan kapozan yoki gemetrelning 0,08% eritmasida ivitish yoki ularning 0,05% eritmasini o`simlikning 2-3 chinbarglik davrida sepish urg`ochi gullar soniga va hosildorlikka ijobiy ta`sir etadi.

Bodring urug`i ekilgach, undirib olish uchun sug`oriladi. O`simlik 2-3 chinbarg hosil qilganda qator oralariga ishlov berilib, har uyada ikkitadan o`simlik qoldirib yagonalanadi. Ikkinchi marta qator oralari ishlov berish, o`simlik 4-5 chinbarg paydo qilib gullash oldidan o`tkaziladi. Bodring palak yozib, gullay boshlashi bilan, qator oralariga ishlov berish to`xtatilib, faqat sug`orilib turiladi. Tuproq namligi dalaning namlik sig`imiga nisbatan 70-80% dan kam bo`lmasligi uchun, bodring er osti sizot suvlarining joylashish chuqurligiga qarab har 6-8 kunda, jami 8-11 martagacha sug`oriladi. Sug`orish me`yori gektariga 400-500 m³.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash. Bodring un shudringi, o`rgimchak kanna, oq pasha va bitlardan kuchli zararlanadi. Bularga qarshi oltingugurt preparatlarning ISO 0,75-1,0% li eritmasi, oltingugurt kukuni gektariga 10-12 kg, 25% li danitolning (2 litr/ga) 5% li, sumi-alfa (0,5 litr/ga), tilt va topaz preparatlarining 0,1% li eritmasini va 40% li kroneton (0,6-1,0 kg/ga) qo`llash samaralidir.

**Yig`ishtirish.** Bodring unib chiqqanining 50-60 kuni birinchi marta; so`ngra har 3-5 kunda, hatto 1-2 kunda ham, jami 15-20 martagacha terib olinadi. Hosildorligi o`rtacha 100-120 ts/ga, ilg`or xo`jaliklarda 250-300 ts/ga ni tashkil etadi.

Bosh piyoz etishtirish texnologiyasi. Er tanlash. Mexanik tarkibi engil, qumoq bo`lgan och tusli bo`z tuproqlar yaxshi hisoblanadi. SHo`rlangan va botqoq tuproqlar piyoz ekish uchun yaroqsiz hisoblanadi.

**Almashlab ekishdagi o`rni.** Bosh piyoz uchun qator oralari ishlanadigan, dalani begona o`tlardan tozalaydigan-karam, kartoshka, pomidor va bodring yaxshi o`tmishdosh hisoblanadi. Piyozni, piyozdan va ildizmevali sabzavotlardan so`ng ekish mann etiladi.

O`g`itlash. Piyoz ildiz er yuzasida joylashganligi uchun nam tuproqqa va oziqaga talabchan. Bir tonna piyoz etishtirish uchun tuproqqa 10,6 kg azot, 7,3 kg fosfor, 3,6 kg kaliy o`g`itlarini solish zarur. Bo`z tuproqlarning har bir gektariga 20-30 tonna go`ng, azot 200 kg, fosfor 150 kg, kaliy 75 kg solish tavsiya etiladi. O`tloq va o`tloq-botqoq tuproqlarga azot 160 kg, fosfor 160 kg va kaliy 80 kg hisobida beriladi.

Erni ekishga tayyorlash. Kuzda tuproq 22-28 sm chuqurlikda shudgorlanadi, tekislanadi. erta bahorda boronalanadi, piyoz qo`lda ekiladigan bo`lsa jo`yak olinadi. Takroriy ekin sifatida ekiladigan bo`lsa, asosiy ekin yig`ishtirilgach erlar shudgorlanadi, jo`yaklar olinib engil sug`oriladi va 8-10 kun o`tgach chizellanib boronalanadi va molalanadi.

Piyoz ekilgan maydonlar bir yillik begona oʻtlarga qarshi u, ekilgunga qadar gektariga tuproqning 6-8 chuqurligida 1,0-1,5 kg/ga, piyoz ekilgach 7-8 kg/ga treflan yoki 12 kg/ga daktal taʼsir etuvchi moda sifatida sepilishi lozim.

Navlari. ertapishar: Peshpazak, oʻrtapishar: Kratskiy, kechpishar: Kaaba-132, Samarqand qizil piyozi-172, Andijon oq piyozi, Margʻilon uzunchoq piyozi va Ispanskiy-313.

Ekish muddati va usullari. Oʻzbekistonda piyoz 3 muddatda ekiladi: erta bagʻorda fevral oyining oxirida, martning boshlarida; yozda avgustda va qish oldidan noyabr oyining oxirida va dekabr oyining boshlarida ekiladi.

Piyoz SKON-4,2 markali seyalkalar bilan lentalab ekiladi (60+15+15 sm yoki 40+15+15 sm, 50+20, 45+15 sm chizmalarda). ekish meʼyori lenta usulida gektariga ertagi muddatda 10-12 kg, yoz va qish oldidan ekilganda esa 14-16 kg, sochma usulda 20-25 kg. Gektariga tup soni 350-400 ming dona boʻlishi maqsadga muvofiq.

Parvarishlash. Toʻla unib chiqqandan soʻng, bara piyozning boʻyi 5-6 sm boʻlganida oʻsimliklar orasi 3-5 sm qoldirilib, birinchi oʻtoq, yagona oʻtkaziladi, ikkinchi yagona va oʻtoq oʻsimlik boʻyi 15-20 sm boʻlganda oʻtkazilib oʻsimliklar orasi 7-8 sm qoldiriladi. Agarda begona oʻtlar koʻpaysa uchinchi oʻtoq ham oʻtkaziladi. Jami oʻsuv davrida qator oralari KRN-2,8A, KRN-4,2 va KOR-4,2 kulʼtivatorlari bilan 4-5 martagacha yumshatiladi. Piyoz oʻrtacha 12-14 martagacha sugʻoriladi, hosilni yigʻishtirishga 3-5 hafta qolganda sugʻorish toʻxtatiladi.

Hosilni yigʻishtirish. Piyoz barglari soʻlib, soxta navdasining qurib buralashi, hosilning tayyor boʻlish belgisidir. Piyoz KTN-2B, KST-1,4 markali bogʻlagichlar bilan yoki qoʻlda bir marta yigʻishtiriladi. Piyozni toʻla mexanizatsiya yordamida yigʻishtirishda LKG 1,4 va KML 6 markali kompleks mashinalarda piyoz boshlar barg va soxta poyadan 2-3 sm qoldirilib kesib tashlanadi, quritiladi va saqlashga yoki isteʼmolga joʻnatiladi. Hosildorligi oʻrtacha 180-200 ts ni tashkil etadi.

Sarimsoq oʻstirish texnologiyasi. Sarimsoq bir yillik ekin sifatida oʻstiriladi. U vegetativ usulda palla va havo piyozchalaridan ekiladi. Havo piyozchalari ekilganda bir pallali piyoz bosh hosil qiladi. Pallalari bilan ekilganda esa koʻp pallali piyoz bosh hosil qiladi. Sarimsoq qishga va sovuqqa chidamli oʻsimlik. Uning Oʻzbekistonda gul poya chiqaradigan YUjniy, Fioletoviy, Mestniy va Mayskiy VIR navlari ekiladi.

Sarimsoq uchun erni tayyorlash oʻgʻitlash begona oʻtlarga qarshi kurashish va parvarishlash tadbirlari piyoz oʻstirilishidagidek olib boriladi. Sarimsoq 1-15 sentyabrda pallalaridan 1-2 qatorli lenta usulda $(80+(20+20))/2 \cdot (5-6)$ sm va $(40+(15+15))/2 \cdot (7-8)$ sm chizmada 6-8 sm chuqurlikka ekiladi. ekish meʼyori pallalarida 100-150 kg da havo piyozchalaridan esa 3-4 qatorli qilib gektariga 50-100 kg piyozcha ekiladi. Sarimsoq

ekilgach kuzda 2-3 marta bahorda 4-6 marta sug`oriladi har bir sug`orishdan so`ng, lentalar oralig`i kul'tivatsiya qilinadi va o`sish karnayi sindirib olib tashlanadi.

Sarimsoq piyoz boshi yupqa pust bilan qoplanib u quriy boshlagan hamda poyasi suliganda hosili yig`iladi, 10-12 kun hirmonda quritilib saralanadi. So`ngra saqlash yoki sotishga jo`natiladi.

***Ildizmevali sabzavot ekinlarini o`stirish texnologiyalari.*** Sabzi va xuraki lavlagi, turp sholg`om ekinlarini ekish, don va ertagi sabzavot ekinlari hosili yig`ishtirib olingach kechki ildizmevali sifatida eqilishi mumkin. Ularning tuproq va havo haroratiga munosabati oddiy karamnikiga o`xshash bo`lib, turp va sholg`om sovukka chidamli, xuraki lavlagi esa issiqqa talabchan. Turp va sholg`om tuproq va havo namligi (80-90%) ga talabchan, sabzi hamda lavlagi esa kam talabchan hisoblanadi. Ildizmevali sabzavot ekinlari tuproq ozuqasiga talabchan emas. Ularga organik o`g`itlar solish tavsiya etilmaydi.

Er tanlash. Oganik moddalarga boy o`tloq, yaxshi o`g`itlangan, mexanik tarkibi engil qumoq tuproqlar yaroqli hisoblanadi.

***Almashlab ekishdagi o`rni.*** Qator oralari ishlanadigan va chopiq talab ekinlar (kartoshka, karam, pomidor va bodring) yaxshi o`tmishdosh hisoblanadi.

O`g`itlash. Ildizmevali sabzavotlar oziq moddalariga unchalik talabchan emas. SHuning uchun o`rtacha o`g`itlash me`yori bo`z tuproqlarda azot 120-150 kg/ga, fosfor 80-100 kg/ga, kaliy 40-50 kg/ga, o`tloq tuproqlarda azot 80-100 kg/ga, fosfor 80-100 kg/ga, kaliy 40-50 kg/ga ta`sir etuvchi modda sifatida beriladi.

Kaliy o`g`itining 100%, fosforning 70-75% haydashda, qolgan 25-30% ekishda, azot esa ikki oziqlantirishda, birinchi marta 2-3 chinbarg chiqarganda, ikkinchi marta ildizmeva hosil bo`layotganida beriladi.

Ildizmevalilar ekilguncha bir yillik begona o`tlarga qarshi 8-10 sm tuproq tagiga treflam moddasi gektariga 0,5-0,75 kg ta`sir etuvchi modda hisobida, ekilgan o`simlik ko`karguncha linuron, prometrin va propazen 2,5-3,5 kg me`yorida qullaniladi. O`simlik ko`karib, 1-2 chinbarg hosil qilganida, gektariga 3 kg hisobida prometrin preparati sepiladi. Xuraki lavlagi ekilgan maydonga o`simlik o`nib chiquncha 9-12 kg atsetlur, 1-2 chinbarg davrida esa 6-7 kg pentanol sepiladi. Gerbitsidlar qullanilgan dalalar hosili 4 oydan so`ng ste`mol qilinishi mumkin.

Erni ekishga tayyorlash. Kuzda TN 4-35, TYA 3-35 pluglari bilan 30-35 sm chuqurlikda shudgorlanadi. ekish oldidan er tekis yumshoq va kesaklari maydalangan bo`lishi uchun boronalanadi va molalanadi.

***Ekish me`yori.*** Sabzi gektari 6-8 kg, lavlagi 16-18 kg. ekish chuqurligi ekin turi va tuproqning mexanik tarkibi, og`ir-engilligiga qarab 1-2 sm dan 3-4 sm gacha bo`ladi.

Ildizmevali sabzavotlar uch muddatda ekiladi: erta bahorda fevral oyining oxiri, mart oyining boshlarida (sabzi, lavlagi), yozda 15 iyundan 15 iyulgacha (sabzi, shalg`om, turp va lavlagi); qish oldidan 15 noyabrdan 10 dekabrgacha (sabzining Evropadan keltirilgan navlari, lavlagi) ekiladi.

Ildiz mevalilar qatorlab, qator orasi 60 sm qilinib yoki qo`sh qatorlab lentalar (20+20) 2 sm ko`p qatorli lentalar, lenta orasi 20-30 sm qator orasi 40-80 sm qilib ekiladi. Ko`rsatilgan ekish chizmalarida har bir gektarda sabzi 420-550 ming, sholg`om 300-400 ming, turp va lavlagi 150-200 ming tup bo`lishi lozim.

Navlari. Sabzining ertapishar Mshak-195, Mirzoi sariq 304, o`rtapishar Mirzoi qizil 228, Nurli, Nantskaya 4, SHantan 2461, lavlaginig Bordo 237, turpning Marg`ilon, sholg`omning Namangan mahaliysi, Samarqand maxaliysi.

Parvarishlash. erta bahorda erning qotib qolishiga qarshi 1,5-2,0 sm chuqurlikda chirindi bilan rotatsion motiga va boronalar yordamida qatqalog`i ishlatilishi mo`ljallanadi, qator oralari KOR 4,2, KRN 2,8 A kul`tivatorlari bilan yumshatiladi.

Ildizmevalilarni parvarishlashda begona o`tlarni yo`qotish nihoyatda murakkab va mehnat talab ishdir. Qator oralaridagi begona o`tlar unib chiqqach kul`tivatsiya qilish lentalar oralarini esa o`toq qilish yo`li bilan yo`qotiladi. O`toq qilish yagonalash bilan qushib olib boriladi.

O`simliklarda 1-2 chinbarg paydo bo`lganda birinchi o`toq va yagona, undan ikki xafta o`tgach, ikkinchi yagona va o`toq o`tkaziladi. Birinchi yagonalashda sabzi 2-3 sm, ikkinchisida esa 5-7 sm, lavlagi va olgom oralig`i 10-12 sm, turpniki 10-15 sm bo`lgani maqsadga muvofiq bo`lib, bir tekis va tovarbop hosil olinadi.

Maysalar yoppasiga ko`kartirib olingach tez-tez har 3-4 kunda sug`orilib turiladi. Ular bir tekis ko`kargandan so`ng sug`orishlar orasi 8-10 kun, xosil etilish davrida esa 12-15 kunda o`tkaziladi. Bu esa tuproq namligini dalaning namlik sig`imiga nisbatan 60-75 % darajada bo`lishini ta`minlaydi.

Kechki ildiz mevalarni, hosilini yig`ishtirishga 2-3 xafta qolganda sug`orish to`xtatiladi. Jami o`suv davrida 5-11 martagacha sug`oriladi. Sug`orish me`yori gektariga 500-600 m³.

Yig`ishtirish. ertagi ildizmevalilar hosili qo`lda, avval saralab yig`ishtirilib, boylam holida sotiladi, so`ngra SNU-3s, SNSH-4, SNS-2M markali kovlagichlar bilan kovlanadi.

Hosil oktyabr-noyabr oylarida qattiq sovuqlar boshlanguncha yig`ibolinadi, quritiladi, saralanadi va saqlashga yoki sotishga jo`natiladi. Hosildorlik ertagi sabzi o`rtacha 120-130 TS/ga, kechkisi 130-150 ts/ga, ilg`or xo`jaliklarda 250-300 ts/ni tashkil etadi.

Saqlash, ildizmevalilar asosan maxsus o`ralarda, havo xususiyati yaxshilangan omborxonalarda, sun`iy sovitiladigan xonalarda saqlanadi.

2. 2. Sabzavot mahsulotlarini etishtirish va uni qayta ishlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish.

Agrosanoat ishlab chiqarishining samarali faoliyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molga kiritish jarayoniga xizmat ko'rsatadigan va ishlab chiqarish jarayonlari hamda iste'mol birlashuvini ta'minlaydigan infratuzilma bo'g'inlari juda muhim ahamiyatga ega. Aynan ana shu iste'molga kiritish bosqichida qishloq xo'jaligi qayta ishlab chiqarish jarayoni nisbatan rivojlanishi lozim bo'lgan bo'g'in hisoblanadi. YAqin-yaqinlargacha qishloq xo'jaligi ishlovchilari o'zlarining bosh vazifasi deb, tuzilgan shartnomalarga muvofiq mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlashni tushunishar, mahsulotning so'ngi iste'molchigacha uning uchun qulay va sifatli ravishda arzon baholarda, eng yuqori iqtisodiy samaradorlikda etib borishi ularni uncha tashvishlantirmasdan chiqmas edilar.

Konserva kombinatlari va ulardagi tsexlarning ishlarini tashkil qilishni o'rganish, ularning xo'jalik hisobi rentabelligi qayta ishlangan sabzavot turlari bo'yicha farq qilishini ko'rsatmoqda. Hozir respublikamizda konserva kombinatlari har yili qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarining 50-60 turini ishlab chiqarmokda. Bularning rentabelligini oshirish uchun eng avvalo mahsulot sifati va turi haqida qayg'urish kerak.

Ishlab chiqarish yuqori darajada sermehnat bo'lib, ishlar kam mexaniza-tsiyalashtirilgani tufayli ochiq erdagi sabzavotchilikda qo'l mehnatining salmog'i 70 foizni, konserva sanoatida-50 foizni tashkil etadi.

Respublikaning meva-sabzavot sanoati bir qancha yirik konserva zavodlarini o'z ichiga olib, ularning bugun tovar mahsulotlari hajmidagi salmog'i 40-50 foizni tashkil qiladi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan qayta ishlash korxonalari oldida quyidagi dolzarb masalalarni hal etish kun tartibida turibdi:

-zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish, etarlicha miqdorda idish va hokozolarga ega bo'lish kerak.

Hozirgi paytda ishlayotgan uskunalarning 50 foizdan ziyodrog'i ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirgan. SHarbatni konservalashning aseptik usuli, o'zluksiz harakatdagi tsentrod zugalardan foydalanib pomidor sharbati olish usuli va hokazolar singari unumrok, texnika va texnologiyani joriy etmoq, lozim bo'ladi;

-korxonalarni xususiylashtirish, boshqaruv va xo'jalik yuritishning iqtisodiy usullarini tubdan takomillashtirishga oid masalalarni hal etish zarur;

-konserva zavodlarining ish samaradorligi ularni qishloq xo'jalik korxonalari bilan bog'lashni kuchaytirishni talab etmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash jarayonlari.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining daladan iste'molchi-gacha harakati ma'lum miqdordagi isrofgarchilik va sifat bo'zishlari bilan kechmokda.

Misol uchun, Respublikamizning ko'pgina viloyatlarida fermer va shirkat xo'jaliklarida etishtirilgan sabzavotlar asosan barra ko'rinishda realizatsiya qilinadi. Mahsulotlarning juda ko'p qismi turli chakana savdo shoxobchalariga to'g'ridan to'g'ri jo'natiladi. Mahsulot ning bir qismi meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarga realizatsiya qilinadi. Qolgan mahsulot bozorlarda va boshqa iste'molchilarga, jumladan viloyat tashqarisiga sotiladi.

Sabzavot mahsulotlarini bu tarzda realizatsiya qilish juda katta nobudgarchilikka olib kelishi mumkin. Nobudgarchiliklar sifat pasayishi, mahsulotni realizatsiya qilishdagi chiqitlar, transportirovka paytida bo'zishlardan hosil bo'ladi.

ekspsrtlar ma'lumotlariga ko'ra, nobudgarchilik tannarxda sabzavotlar bo'yicha - 2,5 - 3,6 % ni, kartoshka bo'yicha - 2,0 -3,6 % ni tashkil qiladi. Bu esa mahsulotlar realizatsiyasinipg iqtisodiy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bir qator tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra masalan, sut ishlab chiqarish va qayta ishlashdagi isrofgarchilik umumiy hajmning 7,5 % ga tug'ri keladi. Ayni paytda bu isrofgarchilikning 40% qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bo'ladi. Bu o'z navbatida sut mahsulotlari sotilishi baholarini oshirib, mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Iste'molga kiritishdagi qiyinchiliklar bu bosqichda nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifatini, massasi va sifati, balki ishlab chiqarish jarayonlari rivojiga ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

Iste'molchi uchun mahsulot sotuvga yaxshi tayyorlangani, sifat bo'yicha navlarga ajratilgani va xarid qilish mumkin bo'lgan narxda ekanligi kabilar muhimdir. Buning uchun esa xaridorga borish jarayonida mahsulotlar uchun eng yaxshi sharoitlarni ta'minlash, sotish joylarini va taqsimlash tartibini belgilash zarur.

Iste'molga kiritishni oqilona tashkil etishda bozordagi mavjud sharoit, jumladan uning mahsulotlar bilan qanchalik to'laligi, bozorda mavjud narxlar, mahsulotlarning sifatiga qarab narxlar o'rtasidagi farqlar hamda mahsulotlarni xaridorga tavsiya qilish muddatlari, mamla-katning turli viloyatlarida aholi talabini to'lov qobi-liyatini jiddiy o'rganish juda katta ahamiyatga ega. Buni aniq bilish korxonaga mahsulotlarni muvaffaqiyatli realizatsiya qilish hamda qo'shimcha daromadlar olish imkonini beradi.

Birok moliyaviy sabablarga ko'ra, tashkiliy sabablar tufayli mahsulotlarni ishlab chiqarish, caiyiaui, tovar sifatiga to'la ishlov berish va sanoat qayta ishlovi jarayon-larini birlashtirish qishloq xo'jaligi doirasida doimo mumkin bulavermaydi.

Masalan, bir korxona faqat g`alla etishtirsayu, ammo un ishlab chiqarishni va non yopishni tashkil etmasa, uning oladigan foydasi salmoqli bo`lmaydi. Ayni paytda juda yirik fermer va shirkat xo`jaliklari, shuningdek maxsus sharoitlarda, masalan o`z xodimlarini iqtisodiy jihatdan ta`minlashni yaxshilash uchun tuzilgan yordamchi xo`jaliklarda mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash, tovar sifatiga to`la ishlov berish va sanoat qayta ishlovi jarayonlarini birlashtirish va realizatsiya qilish mumkin.

Qishloq xududida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning asosiy qismi mini texnologiya va uskunalar to`g`risida ma`lumotga ega emasligi tufayli tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qiziqishi ham markazga nisbatan past texnologik uskunalarni sotib olish uchun ko`pchilik holda tadbirkorlar turli xil xorijiy moliya institutlarining kredit mablag`laridan foydalanish imkoniyatlaridan bexabardirlar.

Qishloqda aholi bandligini ta`minlash va ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish maqsadida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi mini zavodlar bo`yicha texnik tavsifnomalarini taklif etish ushbu sohada mavjud muammolarni hal etishni tezlashtirishi mumkin.

Misol sifatida bir nechta loyihani ko`rib chiqish mumkin.

Mevalarni quritish loyihasi. Loyihaning maqsadi ekologik tomondan maqsadga muvofik, mevalarni quritish bo`yicha ishlab chiqarishni tashkil etish (o`rik, olma, olxo`ri, piyoz, sabzi va hokazo). Germaniyaning NEXTIME EXPORT IMPORT GmbH firmasining yordamchi uskunalari va zavodning to`liq, to`plamini asoslab berishdan iborat.

Uskuna etkazib beruvchi butun kreditlash davrida kredit va foizlarni qaytarish uchun mahsulotni eksport yo`li bilan Germaniyaga realizatsiya qilishni o`z zimmasiga oladi.

Yuqoridagi yoritilgan fikr va mulohazalarni biz tadqiqot olib borgan Samarqand tumani fermer xo`jaliklarini 2008-2010 yillar ma`lumotlarini qo`yidagi 4- jadvaldan ko`rib chiqamiz.

Jadval malumotlarini tahlil qiladigan bo`lsak tumanda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sabzavot mahsulotlari 2008 yilda 113,2 kg, ni tashkil etgan bo`lsa bu ko`rsatkich mevada 86,6 kg ni, uzumda esa 25,6 kg ni, poliz esa 24,0 kg dan to`g`ri kelgan.

Jami etishtirilgan mahsulotlardan haqiqatda 2010 yilda tibbiy me`yorga nisbatan sabzavot 267,9 kg ni, meva esa 44,6 kg ni, uzum 885,3 kg ni, poliz mahsulotlari esa 8,2kg dan tug`ri kelgan. Albatta yuqoridagi ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki tumanda ishlab chiqarilgan mahsulotlari aholini iste`mol talablarini tula qondira oladi deb ayto olmaymiz.

Samarqand viloyati Samarqand tumani aholisining sabzavot, meva, mahsulotlari bilan ta'minlanishi, qayta ishlash ko'rsatkichlari tahlili.

№	Yillar	Tibbiy me'yor bo'yicha talab		Etishtirilgan mahsulot miqdori				2010 yilda tibbiy me'yorga nisbatan iste'mol		
				shundan				Bir kishiga o'rtacha		
		275ming aholiga jami kg	Bir kishiga o'rtacha kg	Jami tonna	Qayta ishlandi	Ekspost qilindi	Iste'mol uchun qoldi	Jami tonna	kg	%
	2008	24090	87,6	17092	4290	991	11805	7000	62,2	71,0
	2009	24090	87,6	23200	7958	1810	13432	890	84,4	96,3
	2010	24090	87,6	12251	3826	1017	7408	11839	44,6	50,9

Manba: Samarqand tumani fermer xo'jaliklari 2008-2010 y ma'lumotlari.

3-bob. Sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari.

3.1. Sabzavotchilikda maxsulot tannarxini pasaytirish yo'llari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash maqsadida ularda mavjud bo'lgan mehnat va moddiy texnika imkoniyatlaridan oqilona foydalanish lozim. Bu vazifani bajarish uchun barcha shakldagi korxonalarda shakllanayotgan mulkdorlar, tadbirkorlar, fermerlar va pudratchilar, tannarx, narx va uning shakllanishi, foyda va rentabellik kabi iqtisodiy tushunchalarni mazmunini va ularni ishlab chiqarishdagi o'rnini, aniqlash usullarini va xususan tannarxni pasaytirish, rentabellikni oshirish omillarini bilishlari talab etiladi.

Mahsulot tannarxi –eng muxim iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib korxonalarning ishlab chiqarish moliya faoliyatini ijobiy va salbiy tomonlarini O'zida aks ettiradi.

Xar qanday qishloq xo`jalik mahsulotini ishlab chiqarish uchun mehnat sarflanadi, mehnat qurollaridan(traktor, kombayn hamda boshqa qishloq xo`jalik texnik vositalar, avtoullovlar, maxsuldor mol va ishchi xayvonlar, bino va inshootlardan) hamda mehnat predmetlaridan (em-xashak, uruglik, o`git, ximikatlar, yoqilgi, va x.k.lar)dan foydalaniladi. Tannarx xo`jalikning mahsulot etishtirish va realizatsiya qilishga sarflagan barcha xarajatlarining puldagi ifodasidir.

Tannarx korxonada yoki fermer xo`jaligida barcha mahsulotlar va ularning xar bir birligini ishlab chiqarish va sotish qanchaga tushishini ko`rsatadi.

Mahsulot birligining tannarxi darajasini bilish davlat nuqtai nazaridan qaraganda: mahsulot ishlab chiqarishni mamlakat xududlari bo`yicha joylashtirish (ixtisoslashtirish), narx-navo siyosatida ichki va tashqi bozorlarni tanlash, ishlab chiqarish rentabelligini aniqlash va xususan Aholining moddiy farovonligini oshirish tadbirlarini belgilash kabi masalalarni xal etishda nixoyatda muxim iqtisodiy dastak vazifasini o`taydi. Qishloq xo`jalik korxonalari uchun mahsulot tannarxini pasaytirilishi, xo`jalik daromadini oshirish, kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish mehnatkashlarning moddiy manfaatdorligini yuksaltirish imkoniyatlarini beradi.

Amaliyotda tannarx to`rt ko`rinishda aniqlanadi: ishlab chiqarish tannarxi, to`la tannarx (yoki tijorat tannarxi), me`yorli yoki rejali tannarx va amaldagi haqiqiy) tannarx.

Ishlab chiqarish tannarxi - mahsulot ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan barcha xarajatlarni, shu jumladan uni xo`jalik omboriga tashish, qayta ishlash va saqlash xarajatlarini ham o`z ichiga oladi.

**Me`yorli tannarx** - korxonada mo`ljallangan xajmdagi mahsulotni etishtirish maqsadida, meyor bo`yicha ajratilgan xarajatlardan tashkil topadi.

Xaqiqiy tannarx - etishtirilgan mahsulotga sarflangan amaldagi xarajatlar hajmini xarakterlaydi.

Qishloq xo`jalik korxonalarida mahsulot tannarxini aniqlashda barcha ishlab chiqarish xarajatlari to`rt turga bo`linadi.

1.Tarmoqlar va ishlab chiqarilgan mahsulot turlari bo`yicha :

- asosiy tarmoq xarajatlari;
- yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari;
- xizmat ko`rsatuvchi ishlab chiqarish xarajatlari.

2.Mahsulot tannarxining shakllanishiga qo`shgan hissasiga qarab:

- bevosita yoki to`g`ri xarajatlar;

- bilvosita yoki taqsimlangan xarajatlar.

3. Xarajatlar tarkibiga ko`ra:

- oddiy (elementli) xarajatlar;

- murakkab(majmual) xarajatlar.

4. ishlab chiqarish xajmiga qarab:

- shartli doimiy xarajatlar;

- shartli o`zgaruvchan xarajatlar.

O`zbekiston Vazirlar Mahkamasi 1999 yil 5 fevral` 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tartibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to`grisida”gi Nizomiga muvofiq, korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlar hisobga olib boriladi. Ushbu nizomga asosan korxonada amalga oshirilgan xarajatlar quyidagi guruhlariga bo`linadi:

1. Mahsulotlar (ish, xizmat)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;

1. Davr xarajatlari;

2. Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar;

3. Kutilmagan zararlar yoki favqulodda sodir bo`ladigan xarajatlar.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga:

- bilvosita yoki bevosita moddiy xarajatlar;
- mehnatga sarflangan bilvosita yoki bevosita xarajatlar;
- shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo`lgan ustama xarajatlar.

Davr xarajatlari:

- mahsulotni sotish xarajatlari;
- boshqaruv (ma`muriy) xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar va zararlar.

Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar:

- foiz bo`yicha xarajatlar;
- chet el valyutasidagi operatsiyalar bo`yicha salbiy farqlar;
- qimmatbaho qog`ozlar chiqarish va sotish xarajatlari;

- boshqa moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar.

Kutilmagan yoki favqulodda sodir bo`ladigan xarajatlar (zararlar), u daromad (foyda)dan olinadigan soliq to`langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda aniqlanadi.

YUqorida qayd etilgan Nizomga asosan mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan va kiritilmaydigan xarajatlar keng ma`noda quyidagicha turkumlanadilar:

1. Mehnat xaqi (ajratmalar bilan) xarajatlari, ularning tarkibiga quyidagi moddalar kiradi:

- qabul qilingan mehnatga haq to`lash tizim va shakllariga muvofiq belgilangan tarif stavkalari va lavozim maoshlari, amalda bajarilgan ish uchun yoki sarflangan vaqt uchun hisoblangan mehnat haqi,

- kasb mahorati va murakkabligi uchun tarif stavkalari va maoshlariga qo`shiladigan ustamalar;

- ish rejimi va sharoiti bo`yicha o`rnatilgan turli xil ustamalar, qo`shimcha xaq, kompensatsiyalar va boshqalar kiradi.

2. Moddiy xarajatlar. Mehnat predmetlari xarajatlari: xo`jalikda ishlab chiqarilgan va sotib olingan urug`lik va ko`chatlar, mollar va parandalarni boqish uchun xo`jalikda ishlab chiqarilgan va sotib olingan em-xashak, qishloq xo`jaligining chiqindi mahsulotlari-novoz va boshqalar; mineral o`g`itlar, bakterial va boshqa preparatlar; neft mahsulotlari, yoqilg`i, chetdan va o`z elektr stantsiyalaridan olingan elektroenergiya; boshqa moddiy sarflar, shu jumladan, ta`mirlash uchun materiallar va zaxira qismlar; o`simliklarni himoya qilish vositalari, medikamentlar va preparatlar, maxsus ish kiyimlari; kam qiymatli, tez to`ziydigan predmetlarning eskirishi; yordamchi sanoat ishlab chiqarishning xom-ashyo va materiallari yoki chetdagi korxona va tashkilotlarga ko`rsatiladigan ishlab chiqarish xarakteridagi xizmatlar, shuningdek xo`jalik balansida turuvchi boshqa yordamchi sanoat korxonalari va ta`mirlovchi ustaxonalar xarajatlari.

3. Asosiy vositalar amortizatsiyasi. Asosiy vositalarning dastlabki qiy-matidan kelib chiqib O`rnatilgan, me`yorlarda hisoblanadigan xarajatlar, bunga umumiy ovqatlanish korxonalariga, vrachlik ambulatoriyasi va boshqa muassasalarga bepul foydalanish uchun berilgan ob`ektlar bo`yicha ajrat-malar ham kiradi.

4. Sug`urta o`lchovlari, o`z ichiga ekinlar, mollar va boshqa mulklar sug`urta badallari, shuningdek xodimlar sugurtasini oladi.

5. Boshqa xarajatlar, O`z ichiga yagona er soligi, xodimlar xizmat safari to`lovlarini, ixtirochilik sarf-xarajatlarini, takliflarni ragbatlantirish xarajatlarini, o`t uchirish va qorovullik xizmatini saqlash; institut va kollejlarga o`qishga yuborilgan talabalar stipendiyalarini, yuqori tashkilotlarga ajratmalar va boshqa xarajatlarni oladi. **Mahsulot tannarxini hisoblash uslubi**. Mahsulot birligining (tonna, tsentner) yoki ish birligining

(haydalgan bir gektar er, tonna, kilometr) tannarxi sarflangan xarajatlar yig`indisini (mehnatga to`langan haq – material – pul xarajatlari) olingan mahsulot miqdoriga bo`lish yo`li bilan aniqlanadi:

$$T_n = \frac{J_x}{Y_{AMX}}$$

YAMX

Bu erda: T_n – mahsulot tannarxi, so`m;

J_x - jami ishlab chiqarish xarajatlari, m.so`m;

YAMX- yalpi mahsulot xajmi, tonna, ts.

Mahsulot tannarxi aniqlanganda, xarajatlarning ayrim turlari hisoblab chiqiladi. XO`jalikning O`zida etishtirilgan materiallar (o`ruglik, ozuqa va xokozo) xo`jaliklarda etishtirish tannarxi bo`yicha baholanadi. Sotib olingan materiallar esa ularning xaqiqiy sotib olish narxlari bo`yicha baholanadi.

Ayrim tarmoqlar esa bir necha xil asosiy mahsulot beradi. Ularni tutash mahsulotlar deyiladi, masalan, qo`ychilikda qorako`l teri, jun, go`sht, sut, parrandachilikda tuxum, go`sht xokazolar.

Ularni etishtirishga sarflangan xarajatlar mahsulotning xar bir turining salmogiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bu xarajatlarni tegishli mahsulotning miqdoriga bo`lish yo`li bilan shu mahsulot birligining tannarxi aniqlanadi.

Ekinlar va tarmoqlar bo`yicha amortizatsiya ajratmalari quyidagicha taqsimlanadi: agar ishlab chiqarish uchun asosiy mablag`lar bir necha tarmoq mahsulotini etishtirishga sarflangan bo`lsa, u holda amortizatsiya ajratmalari ekinlar va tarmoqlar bo`yicha ana shu ekinlar va tarmoqlarga to`gridan – to`gri qilingan mehnat sarflariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Tarmoqlar, ekinlar va mahsulot turlari bo`yicha umumxo`jalik va umum ishlab chiqarish xarajatlari to`gridan – to`gri qilingan mehnat sarflariga plyus amortizatsiya ajartmalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Mahsulot tannarxini pasaytirishning eng muxim yo`li ishlab chiqarish jarayonlarini to`liq mexanizatsiyalashtirish asosida mehnat unumdorligini oshirishdir. Izchillik bilan jadallashtirish asosida ekinlarning hosildorligini, chorvachilikning mahsuldorligini oshirish mahsulot tannarxining pasaytirish, rentabellik darajasini oshirish eng muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash mahsulot tannarxini arzonlashtirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. SHuningdek, mahsulot ishlab chiqarishda aylanma vositalardan maqsadga muvofiq foydalanishning ham ahamiyati katta.

Tarmoqlarni maqsadga muvofiq ravishda ixtisoslashtirish va joylashtirish, ularni to'g'ri muvofiqlashtirish ishlab chiqarishni arzonlashtirishga sezilarli ta'sir etadi.

Fan tavsiyalarini va ilgorlar tajribasini ishlab chiqarishga izchillik bilan joriy etish, dexqonchilik madaniyatini doimiy ravishda yuksaltirish, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va ximiyalashtirish – bularning hammasi, bir tomondan xosildorlikni oshirsa, ikkinchi tomondan mahsulot birligiga sarf-xarajatlarni keskin su'ratda kamaytiradi.

Mehnat va moddiy pul mablag'larini tejab- tergap sarflash, ma'muriy boshqaruv xarajatlarini va boshqa xar qanday o'rinsiz xarajatlarni qisqartirish uchun tadbirlar ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etish, tannarxni kamaytirishda juda ahamiyatga ega.

Dexqonchilik xosildorligini va chorvachilik maxsuldorligini oshirish hamda xarajatlarni qisqartirish avvalo xo'jalikni moxirlik bilan boshqarishga er, ishlab chiqarish vositalari va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bogliqdir.

Meva-sabzavotlarning inson salomatligiga bevosita ta'sirini hisobga olib O'zbekistonda aholi jon boshiga yil mobaynida mahsulot tannarxining pasaytirilishi avvalo, xo'jaliklarda ishlab chiqarish natijalariga bogliqdir. Xo'jaliklarning asosiy vazifasi mehnat va mablag'larni me'yorida sarflagan holda, qishloq xo'jalik mahsulotlarini maksimal darajada ko'paytirishdan iborat.

Qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarishning barcha soxalarida mehnatni ilmiy asosda tashkil etishni joriy qilish va xo'jalik hisobini mustaxkamlash moddiy pul xarajatlarini iqtisod qilish rejimini izchillik bilan amalga oshirish tannarxni pasaytirish uchun shart-sharoit yaratadi. Samarqand tumanida sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxi tahlilini qo'yidagi 5-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki tumanda sabzavot etishtirishda xarajatlar tarkibi shu jumladan asosiy xarajatlardan, mehnat xaqi 2009 yilda 26,1% ni, mineral o'g'it xarajatlari 21,5% ni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda mehnat xaqqi xarajatlari 27,3% ni, ya'ni 2009 yilga nisbatan 1,2% ga oshgan, o'g'it xarajatlari 20,8 % ya'ni 2009 yilga nisbatan 0,7% ga kamaygan.

Sabzavot ishlab chiqarishga sarflangan umum ishlab chiqarish xarajatlari 2009 yilda 3972 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2010 yilda 8432 mln so'mni tashkil etgan, ya'ni 2009 yilga nisbatan 4460 mln so'mga yoki 2,1 marotabaga oshgan. YUqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki tumanda sabzavot mahsulotlari ishlab

chiqarish xarajatlari oshishi albatta mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar miqdorini oshishi hisobiga oshib borgan.

Samarqand tumani sabzavotchilik fermer xo`jaliklarida 2009-2010 yillardagi
sabzavot mahsulotlari etishtirish uchun sarflangan xarajatlarning tarkibiy natijaviy
tahlili.

Ko`rsatkichlar	2009y mln. so`m	Ulushi %	2010 y mln. so`m	Ulushi %	2010 y-ni 2009y-ga nisbatan farqi (+ /-)	2010y-ni 2009y-ga nisbatan o`zgarishi %
Mehnat haqi, ajratma- lar bilan	1036,7	26,1	2301,9	27,3	1265,2	2,2 martaga oshgan
Mineral o`g`itlar	854	21,5	1753,9	20,8	899,9	2martaga oshgan
Amortizatsiya	143	3,6	269,8	3,2	126,8	1,8 martaga oshgan
Urug`lik	568	14,3	1205,8	14,3	637,8	2 martaga oshgan
Ish-xizmatlar	548,1	13,8	1298,5	15,4	750,4	2,3 martaga oshgan
YOMM	464,7	11,7	910,7	10,8	446	1,9 martaga oshgan
Umum ishlab chiqarish xarajatlari	258,2	6,5	455,3	5,4	197,1	1,7martag a oshgan
Boshka xarajatlar	99,3	2,5	236,1	2,8	136,84	2,3 martaga oshgan
Jami	3972	100,0	8432	100,0	4460	2,1 martaga oshgan

Manba: Samarqand tumani fermer xo`jaliklari uyushmasi hisobotlaridan.

Biz olib borgan ilmiy tadqiqot natijalarini tumandagi ayrim fermer xjaliklarida sabzavot ishlab chiqarish xarajatlarini ham o`rganganimizda qo`yidagi natijalarni tahlil qilishni lozim topdik.

6-jadval

Samarqand tumaniga qarashli 10 ta fermer xo'jaliklarda 2010 yilda etishtirilgan o'simchilik mahsulotlariga sarflangan me'yoriy va haqiqiy xarajatlar tarkibi xaqidagi tahliliy ko'rsatkichlar

№	Ekin turlari																Ekinlar xosildorligi ts/ga
			Ish xaki fondi		Uruglik		YOmm sarfi		Ugit		Asosiy vosita sakiash xarajat. sum	Ishlar va xizmatlar sum	Sugurtaga tuovlar sum	Umum i/ch xarajatlar Sum	Boshka xarajatlar sum	I tse ntr I maxsul tan narxi sum	
			Jami xarajatlar	SHu jumla dan	Me`yor	Xakikat	Me`yor	Xakikat	Me`yor	Xakikat							
1	Sabzavot (ochik maydon)	659012	312782	117334	314500	65945	37800	72519	73040	54285	11256	76100	2500	37534	76500	2354	280
2	Kartoshka	976047	276944	64568	450000	268023	30600	20273	69720	28136	14500	51500	5000	33233	6100	6100	160
3	Galla	3304	4293	3152	3960	4152	32760	28130	88644	1018	410	7850	350	4821	7343	734	45

	(suvli)	56	1	6	0	9				1027	0	0	0			3	
4	Meva	3023 23	1293 92	238	X	X	25200	525	56440	27	112 00	2217 0	250 0	1129 6	4446	444 6	68
5	Uzum	4435 93	2441 33	2123	X	X	28800	582	59760	34	147	3520 0	200 0	1550 0	6825	682 5	65
6	Makka don uchun	3218 11	1195 63	5710 4	3600	6295	36900	24607	69720	2801 2	714 0	3000 0	300 0	6438	7398	739 8	43,5
7	Ildizmev a va xashaki lavlagi	3526 05	1459 53	7617 9	1000 0	1924 1	31500	45718	59760	3387 5	270 0	5450 0	200 0	1274 2	1148	114 8	307, 1
8	Bir yillik o`t ko`k massa uchun	1941 82	4314 5	5086 2	1000 0	2482 5	29160	10793 1	59760	8827 6	285 0	3000 0	x	3767	1550 0	573	339
9	Jami	3580 029	1314 843	3999 34	5447 00	4258 61	25272 0	30028 9	52684 4	3351 55	643 46	3779 70	205 00	1253 31	3386 75	361 87	1245 ,5

Manba: Samarqand tumani fermer xo`jaliklari uyushmasi birlamchi ma`lumotlari;

3.2. Sabzavotchilikda hosildorlikni oshirish imkoniyatlari.

Qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi sifat va kompleks ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Hosildorlik oshgan sayin yalpi hosil ko'payib, oqibatda xo'jalikning iqtisodiyoti mustahkamlanib boradi. SHuning uchun hosildorlikni oshirib borish katta ahamiyatga egadir.

O'simlikchilik tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori yalpi hosil deb yuritiladi. Har bir ekin turi buyicha xisobot yilida etishtirilgan yalpi xosil miqdorini bazis yilidagi uning miqdori bilan solishtirib, o'zgarishi (kupaygan yoki kamayganligi) aniklanadi.

Ishlab chiqarilgan o'simlikchilik mahsulotlari miqdorining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar xisobiga sodir buladi. ekstensiv omil bo'lib ekin maydonlarining uzgarishi, intensiv omil bulib xosildorlik darajasining uzgarishi xisoblanadi. Demak, yalpi xosil miqdorining uzgarishi kuyidagi ikki omil xisobiga paydo buladi:

1. Ekin turlari buyicha ekin maydonlari miqdorining uzgarishi;
2. Xar bir ekin turi buyicha 1 gektar xisobiga etishtirilgan xosil (ya'ni xosildorlik)ning uzgarishi.

Ushbu omillarning yalpi xosilning uzgarishiga ta'siri "Zanjirli almashtirish", "Kursatkichlar farki", "Indeksli taxlil" usullaridan foydalanib aniklanadi va omilli taxlil kilinadi. Biz bu erda "Zanjirli almashtirish" usuli orkali taxlil kilish tartibini keltirdik.

Taxlilni bevosita amalga oshirishdan oldin kuyidagi 3 ta boglanish kursatkichi aniklab olinadi:

I $Mo X_o$ - bazis yilidagi maydonni (Mo) shu yildagi xosildorlikka (X_o) kupaytirib, bazis davri yalpi xosili aniklanadi.

II $M_1 X_o$ - xisobot yilidagi ekin maydonini (M_1) bazis davridagi xosildorlikka (X_o) kupaytirib, shartli yalpi xosil aniklanadi.

III $M_1 X_1$ - xisobot yilidagi ekin maydonini (M_1) shu yildagi xosildorlikka (X_1) kupaytirib, xisobot yili uchun yalpi xosil aniklanadi.

Ushbu kursatkichlarni aniklab olgandan keyin yalpi xosil dinamikasini taxlil kilish mumkin.

Xisobot yilidagi yalpi xosildan bazis yilidagi yalpi xosilni chegirish orkali uning umumiy uzgarishi aniklanadi:

$$M_1 X_1 - M_0 X_0 = \pm \Delta m_x$$

YAlpi xosilning uzgarishiga ekstensiv (mikdoriy) omilning, ya`ni ekin maydoni mikdorining uzgarishini ta`sirini aniklash uchun shartli yalpi xosildan bazis yilidagi yalpi xosilni chegirib tashlash kerak:

$$M_1 X_0 - M_0 X_0 = \pm \Delta m$$

YAlpi xosilning uzgarishiga intensiv (sifatiy) omilning, ya`ni xosildorlikning uzgarishini ta`sirini aniklash uchun xisobot yilidagi yalpi xosil mikdoridan shartli yalpi xosil mikdorini ayirib tashlash kerak:

$$M_1 X_1 - M_1 X_0 = \pm \Delta x$$

SHu ikki omil ta`sirlarining yigindisi yalpi xosilning umumiy uzgarishiga teng kelishi kerak.

YUkoridagi keltirilgan «Zanjirli almashtirish» usuli koidasi buyicha Samarqand tumani fermer xo`jaliklarida etishtirilgan sabzavot mahsulotlari yalpi hosili dinamikasining tahlilini 7-jadvalda ko`rib chiqamiz.

7- Jadval

Samarqand tumanida fermer xo`jaliklari bo`yicha sabzavot mahsulotlari yalpi hosili dinamikasining tahlili

Ko`rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2010 yilni 2009yilga nisbatan o`zgarishi	
			Miqdoriy (+:-)	Nisbiy %
1.Ekin maydoni , ga	3095	2482	-613	80,1
2.Hosildorlik ts/ ga	340,9	296,8	-42,1	87,0
3.Sabzavot yalpi hosili, tonnada	105509	73673	-31836	69,8

Manba: Samarqand tumani statistik ma`lumotlari;

9- jadvalda biz sabzavot hosildorligini tahlil qilganimizda hosildorlik 2009 yilda 340,9 ts ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2010 yilda 296,8 ts ni tashkil etgan ya'ni 2009 yilga nisbatan hosildorlik 42,1 ts ga kamaygan. SHu jumladan yalpi hosil 2009 yilda 105509 tonnani tashkil etgan bo'lsa 2010 yilda esa 73673 tonnani ya'ni 2009 yilga nisbatan -31836 tonnaga kamaygan.

3.3. Sabzavotchilikda rentabellikni oshirish yullari.

Sabzavot etishtirishni ko'paytirish, xalqni vitaminli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini amalga oshirish agrosanoat majmuasi xodimlari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Negaki, kundalik turmushimizni, dasturxonimizni hayot faoliyatimiz uchun zarur turli xil sabzavot mahsulotlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hukumatimizning agrar sektorini, jumladan sabzavotchilikni rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qilayotganligining boisi ham shunda. Sabzavot etishtirishni ko'paytirish uchun Samarqand tumanida ham katta rezerv va imkoniyatlar mavjud. Xususan, bu erda tuproq, iqlim sharoiti, dexqonchilik uchun qulay, fan tavsiyalari aso-sida, tajribakor dehqonlar mehnati natijasida vujudga kelgan boy tajribalar bor. O'tgan yili viloyatimizda barcha kategoriyalardagi sabzavot mahsulotlaridan 348,3 ming tonna ishlab chiqildi. Bu mamlakatimizda etishtirilayotgan 17 % ini tashkil etadi.

Biroq viloyat ko'p yillik tajribasiga ko'ra ochiq maydonlarda sabzavot etishtirish bilan hamma xo'jaliklarda ham rentabellik darajasining yuqori bo'lishini ta'minlashga erishmagan. Amalda barcha fermer xo'jaliklari ham xo'jalik hisobi va o'z-o'zini mablag' bilan ta'min etishga qodir emas. Bu sohadagi tafovudlar viloyat qishloq va suv xo'jaligi bo'limi hamda fermer xo'jaliklari hisobotlarida, yig'ilishlarida, ilmiy tadqiqotlarning tahliliy ma'lumotlarida aniqlanmoqda. Jumladan o'tgan yili xo'jaliklarda ochiq erda etishtirilgan sabzavot rentabelligi 42,2 % bo'lgan holda ayrim xo'jaliklarda 14,8 % ni tashkil etdi. Bunda ba'zi xo'jaliklar o'rtasidagi rentabellik darajasi 4% dan 63 % gacha farq qiladi. Ana shunday tafovutlar sabzavot etishtirishga ixtisoslashgan Samarqand tumani fermer xo'jaliklari uchun ham tavsiflidir. Misol uchun ochiq erda etishtirilgan sabzavotning tovar qismi rentabelligi Temir bobo fermer xo'jaligida 48,9-64,3 % bo'lgan holda, Mushtariy xo'jaligida atigi 8,5 % ni tashkil etdi. Bu tafovutlarning asosiy sababi shuki, ko'p hollarda tannarx oshib kelmoqda, sifat past bo'layapti. Mahsulotning assortimentidagi turlari bajarilmayapti. Uning o'rtacha sotish bahosi birligi belgilanganidan ortiqcha bo'lmoqda. Tuman xo'jaliklarida 2008ts sabzavot tannarxi o'rtacha 9500 so'mni tashkil qildi. Hatto Samarqand viloyati ixtisoslashgan xo'jaliklarida ham ko'rsatkich o'rtacha 9000 so'm bo'ldi. Buning sababi shuki, erdan va

boshqa resurslardan intensiv texnologiyalar omillaridan fermer xo'jaliklarida unumli foydalanilmayotir.

Umuman dehqonchilikni tashkil etish, texnik va boshqa imkoniyatlaridan foydalanish darajasi, fermer xo'jaliklari o'rtasidagi tafovutlar pirovardida hosildorlikka namoyon bo'ladi. SHu jihatdan olib qaraganda, viloyatimizva tuman respublikada etakchi o'rinlarda turadi. Biroq 1987 yil natijalarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlanganidek, agrosanoat majmuasining hamma yo'nalishlarida ham er, suv, iqlim sharoiti, mehnat resurslari intensiv texnologiyalardan samarali foydalanilmayapti deb bo'lmaydi. Xususan, o'tgan yili viloyatda sabzavot hosildorligi gektar hisobiga 242,6ts bo'lgan holda, bu ko'rsatkich ayrim sabzavotkor xo'jaliklarda 211 ts dan oshmadi. Samarqand viloyatlari xo'jaliklarida ham shu ahvol. Hosildorlik 71,9-262,2 ts dan yuqori ko'tarilmaydi. Ular bilan yonma-yon, yoki bir xil sharoitda joylashgan ayrim fermerlarda atigi 260 ts dan hosil olindi holos. Xo'jaliklar iqtisodiyotidagi bunday tafovutlar turgan gapki, mahsulot tannarxini oshishiga sabab bo'layapti. SHuni alohida ta'kidlash kerak, ko'pgina fermer xo'jaliklarda hosildorlik foizlari ketidan quvilib, sifati unitilib qo'yilyapti. Mahsulotni ko'proq olish maqsadida mineral o'g'itlar meyorsiz va tartibsiz, ilmiy-amaliy tavsiyalarga rioya qilinmagan holda berilmoqda. Mahalliy o'g'itlar chiritilmasdan me'yorsiz berilmoqda. Bu, sabzavot mahsulotlarini sifatiga putur etkazayapti. Uni saqlash va realizatsiya qilishda isrofgarchilikka olib keladi. Jumladan, Samarqand tumani fermer xo'jaliklarida etishtirilayotgan sabzavot mahsulotlari tarkibida talab qilinadigan elementlar etarli bo'lmay qolmoqda. Viloyatning boshqa tumanlarida ham ahvol juda yaxshi emas. Natijada har yili beriladigan buyurtmalar to'liq bajarilmayotir yoki tuzulgan shartnomalar shartlari buzilmoqda. Mahsulotlarning 25-30 % i sifati buzilib iste'molchilarga etib bormayapti.

Sabzavot mahsulotlari etishtirish tannarxining Samarqand tumani fermer xo'jaliklarida oshib borayotganligi, sifatning talabdan orqada qolayotganligidir.

Sabzavotchilik fermer xo'jaliklarida sabablaridan yana biri shuki, ishlab chiqarish xo'jaliklarda hamon qo'l kuchiga asoslanmoqda. Natijada mehnatga to'langan haq to'g'ridan to'g'ri tannarx hisobiga qo'shilayapti. O'tgan yili tumanda 1 ts sabzavot uchun o'rtacha umumiy xarajatlarning 32,6 foizi mehnat haqi sifatida to'landi. Samarqand tumani xo'jaliklarida esa bunga qo'shimcha ravishda transport, idishlar ishlab chiqishni tashkil etish, boshqaruv xarajatlari ham qo'shilmoqda. Oqibatda tannarxning 12 foizdan 13,4 foizgachasi boshqaru apparati xodimlariga sarflanmoqda. Keyingi yillarda sabzavot

mahsulotlarining xarid narxini ko'paytirish maqsadida sifatli sabzavotlar etishtirishga ahamiyat berilmoqda.

Sabzavotchilikni ilmiy texnikaviy asoslarda rivojlantirish, tarmoqning rentabelligini ta'minlash, hosilni sifatli yig'ishtirib olish, qayta ishlash, sotishda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik maqsadida respublikada mulkchilikning turli shakllari joriy etildi, kreditlar berish, imtiyozlar berish kabi imkoniyatlar yaratildi. Sabzavotchilikda ishlab chiqarish rentabelligini tahlilni qiladigan bo'lsak tumanda

8-jadval

Samarqand tumani fermer xo'jaliklarida sabzavot ishlab chiqarish rentabelligi dinamikasi.

t/r	Ko'rsatkichlar	yillar		2010 yil 2009 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2009	2010	miqdoriy +,-	Nisbiy %
1	Sabzavotni sotishdan tushgan tushum mln so'm	17936	13261	-4676	73,9
2	Jami qilingan harajat mln so'm	13528	9504	-4024	70,2
3	YAlpi foyda mln so'm	4409	3757	-652	85,2
4	SHu jumladan; 1ts sotish bahosi so'm	13200	18000	4800	136,3
-	Tannarxi so'm	11700	12900	1200	110,2
	Foydasi so'm	1500	5100	3600	3,4 martaga oshgan
7	Ishlab chiqarish rentabelligi %	32,5	39,5	7 punktga oshgan	

Manba: Samarqand tumani statistik ma'lumotlari 2009-2010 yil

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Samarqand tumanida sabzavot sotishdan tushgan yalpi tushum miqdori 2009 yilda 17936 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2010 yilda 13261 mln so'mni tashkil etgan, ya'ni 2009 yilga nisbatan -4676 mln so'mga kamaygan. Jami xarajatlar miqdori 2009 yilda 13528 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2010 yilda 9504 mln so'mni ya'ni 2009 yilga nisbatan -4024 mln so'mga kamaygan. Tumanda sabzavot mahsulotlaridan olingan foyda 2009 yilda 4409 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2010 yilda 3757 mln so'mni ya'ni 2009 yilga nisbatan -652 mln so'mga yoki 14,8% ga kamaygan. Rentabellik darajasi 2009 yilda 32,5 % ni tashkil etgan bo'lsa 2010 yilda esa 39,5 % ga yoki 7 punktga oshgan, rentabellik darajasini oshishi asosan xarajatlar miqdorini kamayishi xisobiga sodir bo'lgan.

Xulosa va takliflar;

Samarqand tumani fermermer xo`jaliklari faoliyatini tahlil qilib quyidagi xulosalarga ega bo`ldik:

1. Sabzavotchilik mahsulotlari etishtirish, qayta ishlash, iste`molchilarga yil davomida sifatli sabzavot turlarini etkazib berish va iqtisodiy samara olish bugungi kunning dolzarb vazifalari ekanligini har bir fuqaro bilishi shart.

2. Samarqand viloyati aholisi, jumladan tumanda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sabzavot mahsulotlari 2008 yilda 113,2 kg, ni tashkil etgan bo`lsa bu ko`rsatkich mevada 86,6 kg ni, uzumda esa 25,6 kg ni, poliz esa 24,0 kg dan to`g`ri kelgan.

3. Jami etishtirilgan mahsulotlardan haqiqatda 2010 yilda tibbiy me`yorga nisbatan sabzavot 267,9 kg ni, meva esa 44,6 kg ni, uzum 885,3 kg ni, poliz mahsulotlari esa 8,2kg dan tug`ri kelgan. Albatta yuqoridagi ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki tumanda ishlab chiqarilgan mahsulotlari aholini iste`mol talablarini tula qondira oladi deb aytolmaymiz.

4. Viloyatda istiqomat qilayotgan aholini to`liq iste`molini ta`minlab xorijga eksport qilish imkoniyatlari mavjuddir. Sabzavotchilikka ixtisoslashgan Samarqand tumani xo`jaliklarida 2008 yili ochiq va yopiq maydonlardan 15338,8 tonna(jumladan YOpiq maydondan 38,8 tonna) sabzavot mahsulotlari etishtirilgan bo`lsa, 2010 yili esa, ochiq va yopiq maydonlardan etishtirilgan hosil miqdori 11897,5 tonnani (jumladan yopiq maydondan 12,1 tonna) tashkil qildi. Olingan yalpi hosil miqdori 2010 yilda ochiq maydonlarda 3441,3 tonnaga 2008 yilga nisbatan kamayib ketdi. Lekin ochiq maydonlarning har bir gektaridan Olingan hosil esa 2010 yilda 197 tsentnerni tashkil etib, 2009 yildagi 145 tsentnerga nisbatan 52 tsentner ko`p bo`ldi. Tahlilimizdan ko`rinib turibdiki, yalpi hosil kamaygan bo`lsada, har bir gektardan olingan hosildorlik oshgan.

Sabzavot hosildorligini tahli qilganimizda hosildorlik 2009 yilda 340,9 ts ni tashkil etgan bo`lsa bu ko`rsatkich 2010 yilda 296,8 ts ni tashkil etgan ya`ni 2009 yilga nisbatan hosildorlik 42,1 ts ga kamaygan. SHu jumladan yalpi hosil 2009 yilda 105509 tonnani tashkil etgan bo`lsa 2010 yilda esa 73673 tonnani ya`ni 2009 yilga nisbatan -31836 tonnaga kamaygan.

5. Samarqand tumanida sabzavot sotishdan tushgan yalpi tushum miqdori 2009 yilda 17936 mln so`mni tashkil etgan bo`lsa bu ko`rsatkich 2010 yilda 13261 mln so`mni tashkil etgan, ya`ni 2009 yilga nisbatan -4676 mln so`mga

kamaygan. Jami xarajatlar miqdori 2009 yilda 13528 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2010 yilda 9504 mln so'mni ya'ni 2009 yilga nisbatan -4024 mln so'mga kamaygan. Tumanda sabzavot mahsulotlaridan olingan foyda 2009 yilda 4409 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2010 yilda 3757 mln so'mni ya'ni 2009 yilga nisbatan -652 mln so'mga yoki 14,8% ga kamaygan. Rentabellik darajasi 2009 yilda 32,5 % ni tashkil etgan bo'lsa 2010 yilda esa 39,5 % ga yoki 7 punktga oshgan, rentabellik darajasini oshishi asosan xarajatlar miqdorini kamayishi xisobiga sodir bo'lgan.

TAKLIFLAR;

Tadqiqotlar xulosasi shuni qo'rsatadiki, oxirgi uch yildagi sabzavotchilik fermer xo'jaliklarida sabzavot mahsulotlarini etish-tirib kutilgan natijalarni qo'lga kiritishi mumkinligini va va ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilish bilan katta daromad olishligi aniqlandi, ular quyidagilardan iborat:

- O'zbekistonning tabiiy-iqtisodiy sharoitida mos keladigan va ilmiy jihatdan asoslangan xo'jalik yuritish tizimini, bozor iqtisodiyoti talablari asosida takomillashtirish;

- Har bir tumanda tarmoqda yil davomida bir me'yorda mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ixtisoslashgan hududlarni tashkil etish zarur;

- Sabzavotchilik mahsulotlarini zamonaviy qayta ishlash (konservalash, sublimatsiya qilish, quritish, sovutish va muzlatish), qadoqlash va saqlash korxonalarini davr talabiga binoan shakllantirish;

- Xorijiy davlatlar investitsiyasi yordamida, zamonaviy texnologiyalarni, yangi mini texnika vositalarini ishlab chiqarishga joriy etish va urug'chilikni rivojlantirish;

- Sabzavotchilikka o'g'itlar etkazib berishni va begona o't, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashda zamonaviy gerbitsidlar etishtirishni ko'paytirish;

- Sabzavot mahsulotlarini, ayniqsa pomidor, bodring, karamning ortish va jo'natishga chidamliligini oshirish, avtoo'lov vositalari, karam yig'uvchi va boshqa transparterlarni, konteynerlarni, ortuvchi-tushuruvchi mashinalarni joriy etish;

- Ochiq erlarga ilmiy jihatdan asoslangan navbatlab ekishni va issiqxona xo'jaliklarida ekinlar almashuvini tashkil etish;

- Polietilen plyonkalar ostida ertapishar sabzavot mahsulotlari etishtirishni kengaytirish;

-Tarmoqni rivojlantirish uchun mehnatga haq to`lashning yangi shakllarini va mehnatni tashkil etishning ijara munosabatlari va oila (jamo) pudrati usullarini takomillashtirilgan shakllarini keng joriy etish.

Qayd etilgan xulosa va takliflar bo`yicha ilmiy jihatdan asoslangan tadbirlar ishlab chiqish asosida vazifalar echimini topish, sabzavotchilikni barqaror rivojlantirish va rentabelligini oshirishni ta`minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O`zbekiston, 2008.
2. O`zbekiston Respublikasi qonuni. Er kodeksi. – T.: Adolat, 1998.
3. O`zbekiston Respublikasi qonuni. “Mehnat kodeksi”. – T.: SHarq, 1998.
4. O`zbekiston Respublikasi qonuni. “Fermer xo`jaligi to`g`risida”. (yangi tahrirda). –T., 2004. .
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Qishloq xo`jaligida islohatlarni chuqurlashtirishning muhim yo`nalishlari to`g`risida. –T., 2003.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2004 – 2006 yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to`g`risida. –T., 2003.
7. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 476 – sonli qarori. 2004 – 2006 yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish chora – tadbirlari to`g`risida. 2003.
8. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 – 2007 yillarda fermer xo`jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish to`g`risidagi 607 – sonli qarori. –//Xalq so`zi, 2004.
9. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai. – T.: O`zbekiston, 1994.
10. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo`lida. – T.: O`zbekiston, 1995.
11. Karimov I.A. Qishloq xo`jalik taraqqiyoti – to`kin hayot manbai. – T.: O`zbekiston, 1997.
12. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Oziq – ovqat ekinlari maydonlarini optimallashtirish va ularni etishtirishni ko`paytirish chora – tadbirlari to`g`risida”. 2008. -20 sentyabr’.
13. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. – T.: O`zbekiston, 2009.
14. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarini yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi.- 2010. -13 noyabr'.

15. Karimov I.A. Barcha reja - dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.// O'zbekiston ovozi. 2011. -22 yanvar'.
16. Abbosov A., Xakimov R., Nizomov R. Sabzavot va poliz ekinlarining qaysi navini ekkan ma'qulq //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2010.
17. Jo'raev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chikarishni tashkil etish. – T.: Istiqlol, 2004.
18. Inqirozga qarshi choralar dasturi. 2009–2010 yillarga mo'ljallangan. – T., 2009.
19. Ismoilov A., Murtazaev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.
20. Olimjonov O., Farmonov T., Qosimbekov P., Sirojiddinov S., Qosimov M., Rafiqov I. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. – T.: Universitet, 2008.
21. Oripov R.O., Xalilov N.X. O'simlikshunoslik. -Samarqand, 2007.
22. Ostanaqulov T.E. va boshqalar. Meva – sabzavotchilik va polizchilikdan amaliy mashg'ulotlar. –Samarqand. 2008.
23. Raximov N. va boshqalar. SHartnoma munosabatlari.// O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2007. 6-son, - 19 b.
24. Raxmonov D., Raxmonov SH.A. Fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari. //Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi matnriallari. –Guliston. 2008.
25. Raxmonov D., Raxmonov SH., Qozoqova Z. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ayrim masalalari. YOsh olimlarning agrar sohadagi yutuqlari va innovatsion imkoniyatlari “ Barkamol aavlod yiligi ” ga bag'ishlangan ilmiy – amaliy anjuman materiallari. –Samarqand. 2010. 62–65 b.

26. Samatov G`.A., YOdgorov J.YO., Rustamova I.B. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. – T., 2008.
27. Samatov G`.A., YOdgorov J.YO., Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari. –T.: ToshDAU. 2009.
28. Toshpo`latov A. Mahsulot tannarxi va hisoblashni takomillashtirish. //O`zbekiston qishloq xo`jaligi. 2010. 8-son, 20–21 b.
29. Umurzoqov O`.P., Toshboev A.SH., Toshboev A.A. Fermer xo`jaligi iqtisodiyoti. – T.: Iqtisod – moliya. 2008.
30. Farmonov T.X. Fermer xo`jaliglarini rivojlantirish istiqbollari. – T.: Fan. 2008.
31. ergashev R.X. Qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti. – T.: Extremum press. 2011.
32. Qishloq xo`jaligida islohatlarni chuqurlashtirishda suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU)ning o`rni. – T.: Talqin, 2008.
33. Qishloq taraqqiyoti va farovonligini oshirishda agrar fanlar yutuqlarining o`rni. Respublika ilmiy – amaliy konferentsiyasi. – Samarqand. 2009.
34. Qishloq xo`jaligini barqaror rivojlantirishda erishilgan yutuqlar va muammolar. Professor – o`qituvchilarning “Barkamol avlod yili” ga bag`ishlangan ilmiy – amaliy konferentsiyasi materiallari. – Samarqand. 2010.
35. Qudratov T. O`simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligining statistik tahlili. –Samarqand. 2009.
36. Samarqand viloyati Samarqand tumani qishloq va suv xo`jaligi bo`limining 2008 – 2010 yillardagi ma`lumotlari.
37. Internet ma`lumoti: www.press-service.uz,
38. Internet ma`lumoti: www.ers.usda.gov,
39. Internet ma`lumoti: www.samqxi.uz,
40. Internet ma`lumoti: www.edu.uz,
41. Internet ma`lumoti: www.usda.gov
42. Internet ma`lumoti: www.tsue.uz
43. Internet ma`lumoti: www.tdiu-makro.narod.ru

44. Internet ma`lumoti: www.micro-macroiqtisodiyot.yaho.uz
45. Internet ma`lumoti: www.ski.ilm.uz